



NORASMIY TARJIMA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MAKTABGACHA
TA‘LIM TASHKILOTLARINING SAQLANISHI, TUZILISHI
VA ISH TARTIBINI TASHKIL ETISHGA DOIR
SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0355-18 - sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2018



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi**

S.S. SAIDALIYEV

27-aprel 2018-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MAKTABGACHA
TA‘LIM TASHKILOTLARINING SAQLANISHI, TUZILISHI
VA ISH TARTIBINI TASHKIL ETISHGA DOIR
SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0355-18 - sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2018

UMUMIY TUSHUNCHALAR

maktabgacha ta'lim – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga ta'lim berish, tarbiyalash, uni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayondir;

tarbiyalash – davlat va jamiyat, oila, insonlar ehtiyoji uchun muhim hisoblangan o'z o'zini tutish uchun jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-madaniy qoida va me'yorlar asosida bolani (tarbiyalanuvchini) o'z o'zini namoyon etishi va ijtimoiylashtirishga, uni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat turidir.

o'qitish – o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakani egallashi uchun tashkil etilgan, bir maqsadga yo'naltirilgan jarayondir;

kvalifikatsiya – bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya darajasi bo'lib, u kasbiy faoliyatni ma'lum bir turini bajarishga tayyorgarlikni karakterlaydi;

imkoniyati chegaralangan tarbiyalanuvchi – bu jismoniy va (yoki) aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, tibbiy-psixologo-pedagogik hay'at tomonidan tasdiqlangan, uzoq davolanish va korreksiyaga muhtoj bo'lgan jismoniy shaxsdir;

ta'lim faoliyati – davlat talablariga mos holda pedagogik xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan, maktabgacha ta'lim sohasidagi ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyat;

inklyuziv ta'lim – individual imkoniyatlar va o'ziga xos bo'lgan ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda maktabgacha ta'limni keng qo'llash imkoniyatini beruvchi jarayondir;

bolalar parvarishi va ularni nazorat qilish – bolalarga shaxsiy gigiena va kun tartibiga rioya qilishni ta'minlash, ovqatlanishni tashkil etish hamda ularga xo'jalik-maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha chora tadbirlar kompleksi.

tibbiyot xodimi – tibbiy-profilaktik faoliyatni amalga oshiruvchi, kasbiy tayyorgarlik va yuqori malakaviy sifatlarga mos holda ma'lumotga ega bo'lgan, jismoniy shaxsdir;

oilaviy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasasi – maktabgacha yoshdagi o'z bolalari qatorida 8-12 ta bolalar kontingentini tarbiyalash va/yoki o'qitish faoliyati, shuningdek ularni parvarishi hamda nazoratiga oid faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar.

tibbiyot xodimining shaxsiy rejasi – maktabgacha ta'lim muassasasi bolalari orasida tibbiy profilaktik ishlarni bajarishni ta'minlovchi hujjat;

qisqa vaqtli tayyorlov guruhi – sutkada 3 yoki 4 soat davomida bolalarni maktabga tayyorlashni amalga oshiruvchi guruh;

adgeziya – qattiq yoki suyuq tana yuzasiga jismlarni yopishishi, ulanish.

QISQARTMALAR RO'YXATI

MTM – maktabgacha ta'lim muassasasi.

QMQ – qurilish me'yor va qoidalari.

OTMTM – oilaviy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasasi.

IQM – idoraviy qurilish me'yorlari.

QVBG – qisqa vaqt bo'luvchi guruh.

IMTM – ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi - bu imkoniyati chegaralangan bolalar uchun mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib, unda markaziy asab tizimi, eshitish organi, ko'rish organi, tayanch harakat tizimida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, sil kasalligiga chalingan bolalar bilan muloqotda bo'lgan bolalar, kasallikni yuqtirgan bolalar latent sil infeksiyali bolalar va davolashni kuchaytiruvchi fazasidagi bolalar tarbiyalanadilar.

KTMTM – bu ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib, unda aqliy va jismoniy nuqsoni bo'lgan, imkoniyatlari chegaralangan bolalar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ikki va undan ortiq yo'nalishli ta'lim muassasasidir.

I. UMUMIY XOLAT

1.1. Mazkur sanitariya qoida, me'yor va gigienik normativlar (SanQvaM) mulk shakli va tashkiliy-qonuniy shakl, ularning tipidan qat'iy nazar, maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalarning parvarishi va nazorati, shuningdek, ularni tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish hamda sog'lomlashtirish bo'yicha bolalar salomatligini muhofaza qilishga qaratilgandir.

Sanitar qoida va me'yor barcha «O'zbekiston Respublikasi axolisining sanitar epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash to'g'risida»gi qonunga mos holda bolalar nazorati, ularni parvarishi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish, tarbiyalash muassasalarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun bajarish majburiy bo'lib hisoblanadi.

1.2. Mazkur sanitar qoidalar quyidagi sanitariya epidemiologik talablar uchun o'rnatiladi:

MTMlarni joylashtirish uchun,
hududni jihozlanishi va saqlanishi,
xonalar, ularni jihozlanishi va saqlanishi,
xonalarni tabiiy va sun'iy yoritilishi uchun,
isitish tizimi va ventilyatsiya tizimidan foydalanish ustidan,
suv ta'minoti va oqava suvlar ustidan,
aqliy va jismoniy rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalar guruhi va ular uchun mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun,
oilaviy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun,
qisqa vaqt bo'luvchi guruhlar uchun,
ta'lim muassasalari qoshidagi maktabgacha guruhlar uchun,
tibbiy ta'minot,
bolalarni MTMga qabul qilish,
kun tartibini tashkil etish,

jismoniy tarbiyani tashkil etish,
xodimlarning shaxsiy gigienasi,
sanitar talablarga rioya qilish,
o'z faoliyatini individual turar joy binosida amalga oshiruvchi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun.

1.3. Mazkur sanitariya qoidalar mulkiy va tashkiliy-qonuniy shaklidan qat'iy nazar barcha faoliyat olib borayotgan, loyihalashtirilayotgan, qurilayotgan va qayta qurilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun joriy etiladi.

Ushbu sanitariya qoidalar ishlab chiqarilayotgan va foydalanishga tavsiya etilayotgan vaqtda loyihalashtirish, qurilish, qayta qurish va foydalanishga topshirish bosqichida bo'lgan ob'ektlar uchun joriy etilmaydi.

Ushbu sanitariya qoida ishlab chiqarilishidan oldin qurilgan maktabgacha ta'lim ob'ektlari o'z loyihasiga mos holda foydalaniladi.

1.4. Ushbu sanitariya-epidemiologik talablar idoraviy tarkibi va mulkiy shaklidan qat'iy nazar maktabgacha ta'limni asosiy umumta'lim dasturini amalga oshiruvchi MTMLari uchun ham, bolalar parvarishi va nazoratini amalga oshiruvchi quyidagi tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun joriy etiladi:

yasli yoshidagi MTMLari uchun (3 yoshgacha),
maktabgacha yoshdagi bolalar MTMLari uchun (3-7 yosh),
bolalar nazorati va sog'lomlashtirish MTMLari uchun,
MMTM (maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari) aqliy va jismoniy rivojlanishning turli buzilishlari mavjud bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan,
ko'p tarmoqli tipdagi MTM,
oilaviy tipdagi MTM,
bolalarni rivojlantirishni bitta yo'nalish bo'yicha ustuvor faoliyat olib boruvchi umumrivojlanish turdagi MTMLari,
individual turar joy binosi hududida joylashgan MTM,
sanatoriya tipidagi MTM,
shaxsiy mulk shaklidan qat'iy nazar inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasalari.

Mazkur sanitariya qoidalar boshqa tipdagi ta'lim muassasalarida tashkil etilgan umumrivojlantiruvchi, sog'lomlashtiruvchi, ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim muassasalari uchun bajarish va amal qilish majburiy bo'lgan qoidalar hisoblanadi.

1.5. Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lish davomiyligiga bog'liq holda MTMLari qisqa vaqt davomida bo'luvchi (3-4 soat), qisqartirilgan kunlik (kuniga 9 soatgacha), to'liq kunlik (kuniga 10,5 soatgacha va kuniga 12 soat) va bolalarni sutka davomida bo'lish turlariga bo'linadi.

1.6. Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida (guruhlarda) bo'lish davomiyligi kunduzgi uyqu va ovqat qabul qilishni tashkil etish imkoniyatiga qarab belgilanadi:

3-4 soat – bir martalik ovqatlanishni tashkil etish bilan yoki ovqatlanishni tashkil etilmasligi va kunduzgi uyquni tashkil etilmasligi;

9-10,5 soat – kun davomida 3 marta ovqatlantirishni tashkil etish va kunduzgi uyquni tashkil etish;

12 soat – kun davomida 4 marta ovqatlantirishni tashkil etish va kunduzgi uyqu;

bolalarni sutka davomida uzluksiz MTMda bo‘lishi – sutka davomida 5 marta ovqatlanishni tashkil etish, kunduzgi va tungi uyqu.

1.7. MTM binosi alohida turuvchi, turar joy binolari yon tomoniga biriktirib qurilishi, turar joy binolariga biriktirib qurilishi, turar joy binolariga birga o‘rnatilgan qurilishi, shuningdek, ko‘p qavatli turar joy binolarining dastlabki ikki qavatida joylashtirilishi, individual turar joy binolarida alohida kirish - chiqish eshiklarni tashkil etgan holda joylashtirishi mumkin.

1.8. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun guruhlar boshqa tipdagi umumta’lim muassasalarida ham (maktabgacha ta’lim muassasalaridan tashqari) tashkil etish mumkin, faqat ularda mazkur sanitariya qoida va me’yorda ko‘zda tutilgan xonalar tarkibi bo‘lishi shart.

1.9. MTMlarda guruhlar jamlanmasini tuzishda 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar guruhida bolalar soni 20 tadan ko‘p bo‘lmasligi, 3 yoshdan katta bo‘lgan bolalar guruhida bolalar soni - 25 tadan oshmasligi kerak, shuningdek, qisqa vaqt bo‘luvchi guruhlarda bolalar soni - 30 tadan oshmasligi kerak, oilaviy tipdagi MTMlarda maktabgacha yoshdagi o‘z bolalarini qo‘shib hisoblaganda bolalar soni 12 tadan oshmasligi kerak.

Umumrivojlantiruvchi yo‘nalishdagi maktabgacha ta’lim muassasasidagi guruhlarda bolalar soni:

3 yoshgacha -20 nafar boladan ko‘p emas,

3 yoshdan 6-7 yoshgacha - 25 nafar boladan ko‘p emas, qishloq sharoitlarida - 30 ta bolagacha ruxsat etiladi,

qisqa vaqt bo‘luvchi MTMlarda 30 ta boladan ko‘p emas,

sutka davomida to‘liq bo‘luvchi MTMlarda 20 nafargacha bolaga ruxsat etiladi.

Ixtisoslashgan maktabgacha ta’lim muassasalarida guruhlarni to‘lishi bolalarning yoshi va toifasiga qarab belgilanadi (uch yoshgacha va uch yoshdan katta) va quyidagiga mos xolda tashkil etiladi:

Nutqni og‘ir buzilishlari mavjud bo‘lgan bolalar uchun (dizartriya, rinolaliya, alaliya, duduqlanish, bolalar afaziyasi)-10-12 nafar bola,

Kar bolalar uchun-8-10 nafar bolalar,

Yomon eshituvchi bolalar uchun-10-12 bola,

Ko‘r bolalar uchun-8-10 nafar bola,

Yomon ko‘ruvchi bolalar, ambliopiyali bolalar uchun, g‘ilay bolalar uchun-10-12 nafar bola,

Tayanch-harakat tizimida buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun-15-18 nafar bola, gemeoporez, monoporez, plegiya asoratlari bor bo‘lgan bolalar guruhlarida-10-12 nafar bola,

Ongning buzilishi, yengil darajadagi aqliy buzilish mavjud bo‘lgan bolalar uchun -8-12 nafar bola, o‘rta darajadagi aqliy buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun guruhdagi bolalar soni-6-10 nafar,

3 yoshdan kattia bo‘lgan autizm bolalari-8-10 nafar bolani bir guruhda bo‘lishiga ruxsat etiladi,

Bolalar bosh miya paralichi (DSP) bilan asoratlangan bolalar guruhlaridagi bolalar soni-8-10 nafar bola,

Aqliy rivojlanishida orqada qolish mavjud bo'lgan bo'lgan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhidagi bolalar soni-10-12 nafar,

Murakkab nuqsonli bolalar guruhlarida (ikki va undan ortiq nuqsonlar) – 8-10 nafar bolalar,

Sil bilan kasallangan bolalar guruhlarida-15-20 nafar bolalar.

1.10 Tarkibida inkoyuziv guruh saqlagan umumiy tipdagshi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi guruhlarining to'lish chegarasi bolalar yoshiga (3 yoshgacha va undan katta) va imkoniyati chegaralangan bolalar toifasi bog'liq xolda belgilanadi va quyidagini tashkil etadi:

3 yoshgacha bo'lgan bolalar – 20 nafar boladan ko'p emas, ulardan 3 nafari imkoniyati chegaralangan bolalarni tashkil etadi,

3 yoshdan katta,

20 nafar boladan ko'p emas, ular ichidan 3 nafar bola ko'rish qobiliyati past, yomon eshituvchi, tayanch-harakat tizimida buzilishlari bo'lgan bolalar, o'rta va past darajadagi aqliy qobiliyatni pastligi aniqlangan bolalarni tashkil etadi,

20 nafar boladan ko'p emas, ulardan 2 nafar bola ko'ruv ambliopiyasi, g'ilaylik, nutqning og'ir buzilishi, autizm bilan og'rigan bolalarni tashkil etadi,

20 nafar boladan ko'p emas, ularidan 3 nafari, aqliy qobiliyatning zaderjkasi bo'lgan bolalarni tashkil etishi mumkin.

1.11 MTM hududi va xonalarini (ijaraga berish) bolalar parvarishi va nazorati yoki ularga umumta'lim masalalari bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat olib boruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga foydalanish uchun berish qat'iyyan taqiqlanadi.

1.12 Mazkur Sanitar qoidani bajarish bo'yicha nazorat O'zbekiston Respublikasi «Aholini sanitar-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash»to'g'risidagi qonun bo'yicha olib boriladi.

II. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINI JOYLASH TIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

2.1 MTM larini qurish uchun yer maydonini taqdim etish mahalliy hokimiyat qarori va yer maydonini ajratilganligi to'g'risidagi sanitar-epidemiologik xulosa mavjud bo'lganda ruxsat etiladi.

2.2 MTM binosi turar joy mikrorayonlarining kvartal ichi hududida, shuningdek, shahar ko'chalaridan uzoqlashtirilgan individual turar joy binolarida, Sanitar qoida va me'yorlari talablariga javob beradigan atmosfera havosini ifloslanish darajasi va shovqinni yo'l qo'yiladigan darajasini ta'minlovchi kvartal ichi yo'llari bilan chegaralangan xolatda joylashtiriladi.

2.3 MTM binosi turar joy binolar qurilish zonasida, ishlab chiqarish korxonolari atrofida tashkil etilgan sanitar-himoya mintaqasidan tashqarida, qurilmalar va boshqa ob'ektlardan tashqarida, garajlardan, avtoturargohlardan, yirik avtomagistrallardan, temir yo'l transporti ob'ektlaridan, metropoliten yo'li

tarmog'idan, havo transportini uchish va qo'nish marshrutlaridan sanitar himoya mintaqasini saqlagan holda joylashtiriladi.

MTM binosini joylashtirganda o'yin maydonlari va xonalarni tabiiy yoritilishi, insolyatsiyani me'yoriy darajasini ta'minlash maqsadida SanQ va M hisobga olgan holda turar joy va jamoat binolaridan sanitar himoya chegarasini hisobga olgan xolda joylashtiriladi. MTM hududi orqali shahar va qishloq ahamiyatiga ega bo'lgan magistral muhandislik kommunikatsion tizim elementlari-suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, energiya ta'minoti, gaz ta'minoti tizimlari o'tmasligi kerak.

2.4 Shahar va qishloq sharoitida MTMlarni qurish davrida ularga piyoda yetib olish radiusi-0,3-5 km dan oshmasligini hisobga olish zarur.

2.5 Qayta qurilayotgan MTMlari uchun yer maydonining hududi ShMQ 2.07.01-03 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq axoli turar joy mintaqalari qurilish hududini rivojlantirishni rejalashtirish", IQM (Idoraviy qurilish me'yorlari) ga mos xolda tashkil etilishi kerak.

MTM binosi ichi maydonidagi guruh yacheykasida bir o'rin uchun $3,3\text{m}^2$, oilaviy tipdagi MTMda esa bir o'rin uchun 3m^2 joy tashkil etilishi kerak.

2.6 Ko'p qavatli turar joy binolarining birinchi qavatida joylashgan MTMlarning guruh yacheykasi maydoni bir o'rin uchun $2,8\text{m}^2$ dan kam bo'lmasligi kerak.

2.7 Kvartal ichi chiqindi yig'ish pavilonlarini MTM chegarasidan 20 metrdan kam bo'lmagan masofada joylashtirish talab etiladi.

III. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINI JIHOZLANISHI VA HUDUDINI SAQLANISHIGA QO'YILADIGAN GIGIENIK TALABLAR.

3.1 MTM hududi perimetr bo'ylab, balandligi 1,6 metrli devor bilan chegaralanadi. Daraxtlar chegaradan 10 metrdan kam bo'lmagan masofada, butalar esa-MTM binosidan 5 metrdan kam bo'lmagan masofada ekilishi talab etiladi.

MTM hududini ko'kalamzorlashtirishda bolalar o'rtasida jarohatlanish va zaharlanishlarni oldini olish maqsadida tikonli o'simliklar, mevalari zaharli bo'lgan o'simliklarni ekishga yo'l qo'yilmaydi.

Hududni ko'kalamzorlashtirishda MTM maydonining qurilishlardan xoli bo'lgan 30%dan kam bo'lmagan maydoni hisobidan amalga oshirilishi talab etiladi. Xo'jalik mintaqasi guruhlar uchun ajratilgan maydonlardan yashil o'simliklar bilan alohidalanadi. Agarda MTM hududi o'rmonlar, yirik mevali bog'lar, dam olish istirohat bog'lari bilan chegaradosh bo'lsa, yashil o'simliklar maydonini 10%gacha qisqartirishga ruxsat etiladi.

3,2 Murakkab relefli joylarda tashkil etilgan MTMlar hududidagi o'yin maydonlarini ifloslanishdan va suv bosishidan himoya qilish maqsadida yog'ingarchilik suvlari va xosil bo'ladigan oqava suvlarni chetlashtirish tizimlarini tashkil etish talab etiladi.

3.3 MTM hududi tashqi elektr yoritish tizimi bilan ta'minlanishi lozim. Hududning sun'iy yoritilganlik darajasi yerdan 10 lk dan kam bo'lmagan xolatda tashkil etilishi kerak.

3.4 MTMlari hududida quyidagi funksional mintaqalar ajratiladi:
o'yinlar zonasi,
xo'jalik zonasi.

3.5 O'yinlar zonasi mintaqasi o'z tarkibiga o'yinlar, bilish va jismoniy tarbiya maydonlarini oladi.

3.6 MTMlaridagi guruh va jismoniy tarbiya maydonlarida insolyatsiya davomiyligi har bir maydonchada 50% ida 3 soatdan kam bo'lmasligi kerak.

MTMlari hududida shovqin darajasi turar joy mintaqalari uchun joriy etilgan gigienik me'yorlardan oshmasligi kerak.

3.7 Jismoniy tarbiya zonasi va guruh maydonlarining qoplamasi o'tloqdan, zichlashtirilgan grunt va bolalar salomatligi uchun zararsiz bo'lgan zamonaviy sun'iy materialdan iborat bo'lishi kerak;

Barcha tipdagi MTMlarining barcha hududi uchun asfalt qoplamani qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

3.8 bolalarni quyosh nuri va yog'ingarchiliklar ta'siridan himoya qilish maqsadida o'yin zonasining hududida bolalar sonidan kelib chiqqan holda soyabonli ayvonchalar o'rnatilishi lozim.

Oilaviy tipdagi va individual turar joy binolarida tashkil etilgan MTM lardaga sayr maydonchasida yig'iluvchi-soyabonli ayvonchalar o'rnatilishi zarur bo'lib, ular yilning issiq davrida quyosh nuridan, sovuq davrida esa yog'ingarchilikdan bolalarni himoya qiladi.

Soyabonli ayvonchalarning poli yog'och materialidan yoki bolalar salomatligi uchun havfsiz bo'lgan sun'iy materialdan qoplanishiga yo'l qo'yiladi.

Soyabonli ayvonchalarni blokli joylashtirish mumkin.

Binolar atrofida tashkil etilgan yangi qurilgan soyabonli ayvonchalar guruh yacheykalar xonalariga soya solmasligi va tabiiy yoritilganlikni pasaytirmasligi lozim.

3.9 Maktabgacha guruhlar uchun tashkil etilgan o'yin, jismoniy tarbiya qurilmalari va jihozlari bolalardagi bo'y-yosh o'ziga xosliklarini inobatga olgan xolda tashkil etilishi lozim.

3.10 Qayta qurilayotgan MTMlarini ularning sig'imiga ko'ra bolalar uchun jismoniy tarbiya maydonchalari bilan (bitta yoki bir nechta) jihozlanishi talab etiladi.

3.11 Jismoniy tarbiya maydoni yaqinida almashinuvchi chuqurligi 0,4-0,6m va uzunligi -8-12,5m, kengligi 4-6 m bo'lgan (yig'ib olinuvchi, puflanadigan) ochiq basseynni loyihalashtirish yoki o'rnatishga ruxsat beriladi. Cho'milish basseynlarining maydoni 20-25m², erkin shaklda bo'lishi va almashinuvchi chuqurligi 0,1-0,5 m hamda undagi suv har kuni almashtirilishi talab etiladi.

Statsionar basseynlar tarkibida suvni tozalash qurilmalari albatta tashkil etish shart qilib belgilangan.

3.12 Har yili (bahor oylarida) o‘yin maydonidagi qumni to‘liq almashtirish zarur. Yangi olib kelingan qum mikrobiologik, sanitar-kimyoviy ko‘rsatkichlar va gelmint tuxumlari miqdori bo‘yicha gigienik me‘yorlarga mos bo‘lishi kerak. Bolalar foydalanmayotgan vaqtda qumdon ustini ifloslanishdan himoya qilish maqsadida yopib qo‘yish talab etiladi. (yopishda polimer plenka, qopqoqlardan, tent yoki boshqa himoya moslamalaridan foydalanish mumkin).

Parazitar kasalliklar, ichak infeksiyalari yoki bolalar salomatligi uchun havf soluvchi boshqa aralashmalar aniqlanadigan bo‘lsa (kimyoviy, mexanik), qumdonidagi qumni zudlik bilan almashtirish zarur.

3.13 xo‘jalik mintaqasi ishlab chiqarish bo‘limlariga kirish tomonida joylashtirilishi va ko‘chaga chiqish uchun alohida yo‘lkaga ega bo‘lishi kerak.

Oilaviy tipdagi MTM va individual turar joy binolarida joylashtirilgan MTMlarida shahar sharoitida yuzaga keladigan zich qurilishlar holatida xo‘jalik hovlisidan ko‘chaga chiqish uchun alohida yo‘lkani bo‘lmasligiga ruxsat etiladi.

Xo‘jalik mintaqasi hududiga mustaqil kirish yo‘lagining mavjud bo‘lmagan xolatlarida avtotransportni mazkur mintaqaga kirishi bolalar MTMda bo‘lmagan vaqtlarda amalga oshiriladi.

Namunaviy loyiha asosida qurilgan MTMlarining xo‘jalik mintaqasi hududida o‘rin oqliklarini quritish joylari, gilam buyumlarini tozalash va boshqa maishiy vositalarni yuvish joylari tashkil etilishi kerak.

3.14 Qishloq sharoitida tashkil etilgan MTMlarida yoqilg‘i vositalarini saqlash uchun mo‘ljallangan ombor bilan birgalikda tashkil etilgan chegaralangan qozonxona, mahalliy suv ta‘minoti manbasining qurilmasi, MTM uchun maxsus tashkil etilgan, sanitar himoya mintaqasi bilan chegaralangan, suv zahirasi saqlanuvchi rezervuarli mahalliy suv ta‘minoti tizimi tashkil etilishi kerak.

3.15 MTMning xo‘jalik mintaqasida qattiq chiqindilarni yig‘ish uchun tashkil etilgan maydoncha asosiy binodan kamida 20 metr masofada tashkil etiladi. Oilaviy tipdagi MTM va individual turar joy binolarida tashkil etilgan MTMlarda xosil bo‘ladigan qattiq chiqindilarni yig‘ish maxsus ajratilgan maydonchalarda amalga oshiriladi. Qattiq qoplamali ushbu maydonchalarda markirovka qilingan, qopqoqli, alohida konteynerlar tashkil etiladi. Chiqindi yig‘ish maydonchasining o‘lchami chiqindi to‘planadigan konteynerning asosidan har tomonga kamida 1,0 metrdan kam bo‘lmagan xolatda tashkil etiladi.

3.16 MTM hududini tozalash har kuni bolalar tashrifidan oldin va MTM hududini ifloslanish darajasiga bog‘liq xolda amalga oshiriladi. Ob-havo xolati issiq va quruq bo‘lgan sharoitda MTM hududidagi o‘simliklarni sug‘orish kuniga kamida 2 marta amalga oshiriladi.

3.17 MTMgi kirish va chiqish yo‘llari va yo‘laklari, ko‘chalar, xo‘jalik bo‘limiga boruvchi yo‘llar, chiqindi to‘planish maydonlari yuzasi beton yoki boshqa qattiq qoplama bilan yopilishi kerak.

IV. BINOLAR, XONALAR, ULARNI JIHOZLANISHI VA SAQLANISHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

4.1 Aloxida binolarda tashkil etiladigan MTMlarning sig'imi yangi qurilayotgan MTMLar uchun 385 o'rindan oshmasligi kerak.

Yuzaga kelgan zich qurilishlar sharoitida yangi qurilayotgan binolarda MTMLarini qurishga ruxsat etiladi, bunda ko'p qavatli turar joy binolarining birinchi qavatida -75 o'ringa mo'ljallangan, qishloq sharoitlarida esa individual turar joy binolariga zich xolda biriktirib qurish orqali tashkil etish, alohida kirish-chiqish eshiklari bilan ta'minlangan, maxsus aloxida chegaralangan hududda sig'imi 150 o'ringa mo'ljallangan MTMLarini tashkil etishga ruxsat etiladi.

MTMLari quvvatini Davlat sanitar epidemiologik nazorat xizmati va Maktabgacha ta'lim Vazirligi tavsiyasiga ko'ra oshirish mumkin.

Binolarni rejalashtirish tuzilmasiga qo'yiladigan gigienik talablar San Q va M talablariga javob berishi kerak.

4.2 MTM binosi 1-2 qavatli bo'lishi mumkin.

Zich turar joy qurilishi sharoiti va yer maydoni yetarli bo'lmagan xolatlarda 3 qavatdan ortiq bo'lmagan qurilish yoki binolarni ixtisoslashtirishga ruxsat etiladi. Binoning 3 qavatida xizmat-maishiy va bolalar bilan to'garak ishlarini olib boruvchi maxsus xonalarni tashkil etishga ruxsat etiladi (psixolog, logoped xonalari va h.k.). 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun guruh yacheykalari binoning birinchi qavatida, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun esa guruh yacheykalari binoning 2-qavatida joylashtiriladi.

4.3 Yangi qurilayotgan va qaytadan qurilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalarida asosiy umumta'lim dasturini amalga oshirish uchun quyidagi xonalar jamlanmasi ko'zda tutilishi zarur:

guruh yacheykalari-har bir bolalar guruhiga taa'luqli bo'lgan aloxidalangan xona,

bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar uchun va ovqatlanishni tashkil etish uchun xonalar, mazkur xonalar barcha guruhlar tomonidan yoki bir nechta bolalar guruhlari tomonidan navbati bilan foydalanish uchun mo'ljallangan bo'ladi (musiqqa mashg'ulotlari va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, ovqatlanish zali, logoped xonasi va boshqalar).

ustki kiyimlar va poyafzal uchun shkaflar bilan jihozlangan xona yoki maxsus joy,

yordamchi xonalar (tibbiy xizmatlar uchun mo'ljallangan, ovqatlanish bloki, kirxona),

xodimlar uchun xizmat-maishiy xonalar.

4.4 MTMLarining barcha asosiy xonalari 1-2 qavatlarda joylashtiriladi. Binoning yerto'la va sokol qavatlarida bolalar muntazam ravishda bo'lishi uchun va tibbiy xizmatlar uchun mo'ljallangan xonalarni tashkil etish taqiqlanadi.

Yuzaga kelgan zich shahar qurilishi sharoitida oilaviy tipdagi MTMLarni, individual turar joy binolarida joylashgan MTMLarni musiqali yoki sport zallarining yarim yerto'la qavatlarida joylashtirish mumkin, faqat bunda aralash yoritilganlik xolati (tabiiy va sun'iy), shamollatish imkoniyatining gigienik talablarga mos xolatda tashkil etish, shuningdek, yong'in havfsizligi xolatiga rioya qilish sharoitlari ko'zda tutilishi shart.

4.5 Sig‘imiga bog‘liq ravishda MTM binosi turli shaklda bo‘lishi mumkin, ulardan blok yoki pavilon tuzilmali turi keng qo‘llanilishi mumkin, ular bir necha pavilon –korpuslardan iborat bo‘lib, bu binolar alohida turishi yoki isitiluvchi yo‘laklar orqali bir biri bilan bog‘lanishi mumkin. MTMning asosiy binosiga kirish oldida panduslar o‘rnatilishi zarur. Oilaviy tipdagi va individual turar joy binolarida joylashgan MTMlarda ham panduslarni o‘rnatish tavsiya etiladi.

4.6 Yangi qurilayotgan MTMlarda xonalar balandligi poldan shipgacha -3 m dan kam bo‘lmasligi; mavjud bo‘lgan turar joy binolarida joylashgan MTMlarda shipning balandligi poldan-2,8 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

4.7 MTM xonalarida havo-issiqlik tartibini saqlash maqsadida binolarga kirish oldi tambur bilan jihozlanishi kerak. Tamburning chuqurligi 1,6 m dan kam bo‘lmasligi kerak. Oilaviy tipdagi va o‘z faoliyatini individual turar joy binolarida amalga oshiruvchi MTMlarda ham tamburlarni tashkil etish tavsiya etiladi.

4.8 MTM binosining rejalashtirilgan tuzilmasida guruh yacheykalari (har bir guruh uchun alohida bo‘lgan xonalar) va bolalar uchun maxsus xonalar tashkil etilishi zarur, bu maxsus xonalardan bolalar guruhlari bir vaqtning o‘zida yoki navbati bilan foydalanishi mumkin (ustki kiyimlar saqlanuvchi shkaflar va poyafzal saqlanuvchi stilyajlar bilan jihozlangan xonalar yoki joylar, musiqali va/yoki sport zallari, ovqatlanish zali). 3 yoshgacha bolalar guruh yacheykasida hududga chiqish uchun mustaqil yo‘lak tashkil etilishi zarur. 4 tadan ko‘p bo‘lmagan guruhlar uchun umumiy kirish zinapoyasiga ruxsat etiladi.

4.9 To‘liq, uzaytirilgan kunlik va sutka davomida faoliyat olib boruvchi (9 soatdan 24 soatgacha) maktabgacha guruhlar uchun guruh yacheykasi tarkibida quyidagi xonalar yoki o‘rinlar jamlanmasi ko‘zda tutilishi lozim:

mashg‘ulot va o‘yinlar olib borish uchun o‘yin xonasi,
uxlash uchun xona (o‘yin xonasidagi maxsus joy),
mavjud bo‘lgan MTMda ovqat qabul qilish xonasi (o‘yin xonasidagi maxsus joy),

mavjud bo‘lgan MTMda oshxona idishlarini yuvish joyi (o‘yin xonasidagi maxsus joy), (buning uchun ikki bo‘limli rakovina o‘rnatilishi lozim) va ularni saqlash (shkaf va quritish shkaflari),

oqliklarni saqlash uchun xona (joy),
tozalash inventari saqlash joyi (shkafi),
sanitar tarmoq (1 Ilova).

Yangi qurilayotgan MTMda quyidagilar ko‘zda tutilishi lozim:

Maxsus tashkil etilgan ovqatlanish zaliga isitiluvchi yo‘laklar bilan bog‘langan alohida ovqat tayyorlash xonalari,

Ovqat tayyorlash sexida idishlarni yuvish va oshxona jihozlarini qayta ishlash uchun alohida joy,

Oshxona va choy idishlarini yuvish uchun alohida xona, bu xonada 150 o‘ringacha bo‘lgan MTMlarda 2 ta yuvish o‘rinli chig‘anoq, o‘rinlar soni 150 dan ortiq bo‘lgan MTMlarda esa 3 ta yuvish o‘rinli chig‘anoq, har bir guruh uchun alohida idishlarni saqlash uchun shkaflar ajratilishi, kir idishlarni qabul qilish va toza idishlarni berishda oqimlilikka rioya qilinishi lozim.

Xodimlar uchun sanitar tarmoq alohida binoda tashkil etilishi kerak.

4.10 MTMning barcha asosiy xonalarida tabiiy yoritilish uchun sharoit bo'lishi shart.

4.11 Insolyatsiyani ortib ketishini chegaralash va xonalarni me'yordan ortiq darajada isib ketishini oldini olish maqsadida guruh yacheykalari, o'yin xonalari, uxlash xonasi, zallar, tibbiy xona, ovqatlanish zali va ovqat tayyorlash bloki derazalariga quyoshdan himoya qiluvchi vositalar rejalashtirilishi va o'rnatilishi lozim. (2 Ilova).

4.12 MTMning barcha asosiy xonalarida shamollatishni tashkil etish uchun qaytarma framuga va fortochkalar tashkil etishi kerak.

4.13 Deraza bloklari almashtirilganda oyna maydoni almashtirilishi saqlanishi kerak.

4.14 Derazalarning oynali qismi butun, bir polotnoli oynalar bilan qoplanishi kerak.

4.15 Ko'p qavatli turar joy binolarida joylashgan MTM binolarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borish uchun qayta qurilgan isitiluvchi sayr ayvonlaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

4.16 Bolalarga cho'milishni o'rgatish uchun tashkil etiladigan basseynni qurish, tashkil etish va undan foydalanishda, MTMda cho'milish basseylarini tuzilishi, undan foydalanish, undagi suv sifati va suv sifatini nazorat qilish talablariga to'liq rioya qilish lozim.

4.17 Bolalarga kompyuter texnikasini qo'llash bilan olib boriladigan mashg'ulotlar uchun har 1 ta kompyuterga 4,5 m² joy to'g'ri keladigan alohida xona tashkil etish zarur. Xonani jihozlanishi va mashg'ulot rejimini tashkil etish personal elektron-hisoblash mashinalariga qo'yiladigan talablarga mos bo'lishi kerak.

4.18 Yangi qurilayotgan va qayta qurilayotgan ob'ektlar uchun ularning sig'imidan qat'iy nazar ular tarkibida tibbiy kabinet ko'zda tutilishi lozim, u binoning birinchi qavatida joylashtirilishi va yo'lakdan mustaqil eo'ikka ega bo'lishi kerak. (3,11 Ilova).

4.19 Faoliyat olib borayotgan MTMlar (ularda qayta qurish olib borilguncha) ular qurilgan loyiha asosidagi tibbiy xonalar jamlanmasi bo'lishiga ruxsat etiladi.

4.20 MTM binosi tarkibida xizmat-maishiy xonalarning minimal jamlanmasi ko'zda tutilishi zarur, ularning maydoni ushbu Sanitar qoidaga mos bo'lishi kerak. (4 Ilova).

4.21 Yangi qurilayotgan va qayta qurilayotgan MTMlar uchun isitiluvchi yo'laklar bilan bog'langan ovqat tayyorlash bo'limi alohida binoda tashkil etilishi kerak. (5 Ilova).

4.22 Agarda MTMda kirxona bo'limi mavjud bo'lmasa, 4-5 nafar MTMlar oqliklari markazlashtirilgan xolatda faoliyat olib boruvchi va o'z tarkibida kirxonasi bo'lgan MTMda yuvilishi yoki MTMlar uchun maxsus qurilgan kirxonalarda yuvilishi mumkin. (6 Ilova).

MTM kirxonasidan bolalar tarbiyasi bilan aloqasi bo'lmagan tashkilotlarning kirlarini yuvish uchun foydalanmaslik kerak.

4.23 MTMda xonalar rejasini o'zgartirish bolalar uchun kelish sharoitlarini yomonlashtirmasligi, ularning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi va o'quv-tarbiya jarayonini buzmasligi kerak.

V. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING XONA ICHI BEZATILISHIGA TALABLAR.

5.1 Xonalar devori silliq bo'lishi, namli tozalash usullari va dezinfeksiya vositalari ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

Qurilishda foydalanilgan barcha qurilish va pardozi vositalari bolalar salomatligi uchun havfsiz bo'lishi zarur.

5.2 Ovqat tayyorlash bo'limi, idish yuvish xonalari, bufet, oqliklarni yuvish, kirlarni dazmollash xonalarining devori 1,8 metr balandlikda glazurli plita yoki unga analog bo'lgan material bilan qoplanishi va ular bolalar salomatligiga havf solmasligi kerak; ovqat mahsulotlarini tayyorlash xonasi, basseyn vannasining zallari, dush xonalarining devori shingacha silliq plitkalar bilan qoplanishi kerak, sababi, mazkur bo'limlar devori yuvish va dezinfeksiya qilish vositalariga chidamli bo'lishi kerak.

Guruh yacheykalaridagi sanitar tarmoq xonalarining devori 1,5 metr yuqorigacha silliq plitkalar bilan qoplanishi zarur.

Oilaviy tipdagi va individual turar joy binolarida joylashgan MTMlar uchun ushbu talablar tavsiya tariqasida beriladi.

5.3 Gorizontning janubiy rumblari tomonida joylashgan xonalarda olib boriladigan pardozi ishlarida qaytarish koeffitsienti 0,7-0,8 bo'lgan (och-moviy, och-yashil) ochiq rangdagi bo'yoqlar va pardozi materiallaridan, shimoliy rumblar tomonida joylashtirilgan xonalarda –qaytarish koeffitsienti 0,7-0,6 bo'lgan ochiq ranglardan (och-sariq, och-pushti, qaymoqrang) foydalaniladi. Xonadagi alohida elementlarni yanada yorqin ranglarga bo'yashga ruxsat etiladi, ammo bu xonaning umumiy maydonini 25%dan oshib ketmasligi kerak.

Musiq va gimnastika mashg'ulotlari o'tkaziluvchi xonalar devorining yuzasi bolalar salomatligi uchun havfsiz bo'lgan materiallar bilan pardozi va ochiq rangda bo'lishi, akslantirish koeffitsienti 0,6-0,8 ni tashkil etishi lozim.

5.4 Foydalanishning odatiy rejimida ishlovchi xonalar shingining pardozi uchun bo'r yoki ohakli bo'yashdan foydalaniladi. Suvemulsiyali bo'yoqlardan foydalanishga ruxsat etiladi. Bolalar salomatligi uchun havfsiz bo'lgan shingga tarang trotiluvchi moslamalardan foydalanishga ruxsat etiladi.

MTMdagi havoni namligi yuqori bo'lgan xonalardagi (dush, kir yuvish xonalari, yuvinish xonasi, sanitar tarmoq va boshqalar) shing plastik bilan qoplanishi yoki moyli bo'yoq bilan bo'yalishi kerak.

5.5 MTMdagi xonalarining poli silliq, sirpanmaydigan, zich yopishtirilgan, yoriqlarsiz va nuqsonlarsiz, plintus xona devori va polga zich mahkamlangan xolatda bo'lishi, yuvish vositalari va dezinfeksion eritmalar ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

Guruh yacheykalari xonalarining poli yog'ochdan yoki nurli isitish tizimi tashkil etilgan xolatda bo'lishi (suvli isitish tizimi asosida), pol yuzasidagi haroratni boshqarish imkoniyati nazarda tutilishi kerak. Pol yuzasini bolalar

salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan zamonaviy sifatli qurilish materiallari bilan qoplanishiga ruxsat etiladi, faqat ushbu materiallar namli va dezinfekcion eritmalar bilan tozalashga chidamli bo'lishi kerak.

Ovqat tayyorlash bloki xonalari, kir yuvish xonalari, dazmollash xonalari, yordamchi xonalar poli bolalar salomatligi uchun zararsiz bo'lgan sopol, naqshinkor, silliqlangan plitkalar yoki ularning analog materiallari bilan qoplanishi mumkin.

Yo'laklar va yechinish xonalarida yumshoq, isitiluvchi linoleum, dush va sanitar tarmoq poli esa sopol plita yoki uning analog materiali bilan qoplanishi, isitiluvchi pollar tizimini o'rnatishga ruxsat etiladi.

Dush, sanitar tarmoq, kir yuvish xonalari, ovqat tayyorlash blokidagi idishlarni yuvish xonalari va ovqat mahsulotlarini tayyorlash xonalari polida oqava suvlarni chetlashtiruvchi maxsus traplar tashkil etilishi va trap teshiklari tomonga suvlarni oqishi uchun maxsus qiyalikni tashkil etilishi zarur.

VI. MTM XONALARINI JIHOZLANISHI VA ULARNI JOYLASH TIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

6.1 Asosiy xonalarning jihozlanishida bolalarning yoshi va bo'yi inobatga olinishi, gigienik va pedagogik talablarga rioya qilinishi zarur. O'tirish uchun olingan va qo'llaniluvchi mebel jihozlarining va stollarning (ovqatlanish uchun va mashg'ulotlar uchun) funksional o'lchamlari milliy standartlar va o'rnatilgan texnik reglamentlarning qat'iy talablariga mos bo'lishi kerak. (7 ilova).

Ko'p tarmoqli tipdagi MTM xonalari tarbiyalanuvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishidagi siljishlarni kvalifikatsion to'g'rilashni amalga oshirishga bog'liq xolda amalga oshirib jihozlanadi.

6.2 Yechinish xonalarida ustki kiyimlar va bosh kiyim, poyafzallar uchun mo'ljallangan polkalar bilan jihozlangan, ustki kiyimlarni ilish uchun mo'ljallangan ilgaklar bilan ta'minlangan seksion shkaflarni o'rnatish tavsiya etiladi. Bosh kiyimlar uchun polkaning tavsiya etiladigan balandligi – 15sm, shkaf tubini polga nisbatan balandligi-10 sm dan kam emas. Shkaflar eshiklarida tutqichlar o'rniga maqsadli xolda eshiklarni ochish uchun maxsus tirqishlar tashkil etish zarur, bu tabiiy shamol aylanishini ta'minlash uchun ham zarurdir. Oilaviy tipdagi va individual turar joy binolarida joylashgan MTMlarda xonalar uchun ajratilgan maydonning chegaralanish sharoitida balandligi bolalarning o'rtacha bo'yi balandligidan oshmagan shkaflarni o'rnatishga ruxsat beriladi.

6.3 Gurux xonalarida bolalar uchun tashkil etiladigan stol va stullar soni guruhdagi bolalar soniga qarab tashkil etiladi. Bir guruhdagi stol va stullar bir komplekt xolatida tashkil etilishi va maxsus belgilarga ega bo'lishi kerak. Bolalar uchun mebellar 7 ilovada keltirilgan bolalarning antropometrik ko'rsatkichlariga mos xolda tanlab olinadi.

6.4 Guruhlarni mebellar bilan jihozlashda quyidagi talablarga rioya qilinishi zarur:

katta va tayyorlov guruhlari uchun stollarga yoritilganlik ish o'rning chap tomonidan tushadigan xolatda joylashtirilishi lozim,

chapaqay bolalar uchun ish o'rniga yoritilganlik o'ng tomonidan tushadigan xolatda individual ish o'rinlari tashkil etiladi.

Stollar quyidagi xolatda tashkil etiladi:

Chap yon tomondan tabiiy yoritilganlik tushish xolati ta'minlangan sharoitda 3 qatordan ortiq bo'lmagan xolatda joylashtiriladi. Chap tomondan tabiiy yoritilganlikni ta'minlashni imkoni bo'lmagan sharoitda qo'shimcha sun'iy yoritilganlikni tashkil etish mumkin.

Stol qatorlari orasidagi masofa 0,5 m dan kam bo'lmashligi kerak,

Birinchi qator stollari bilan deraza tokchasi gacha bo'lgan masofa 1m,

Birinchi qator stollari bilan ilingan doska orasidagi masofa 2,5m, bunda ko'rish burchagi 45 gradusdan kichik bo'lmagan xolatda tashkil etilishi kerak.

6.5 Stollarning ishchi yuzasi ochiq rangdagi matoli to'shamaga ega bo'lishi kerak. Stol va stullarning ustki qoplamasi uchun foydalanilgan materiallar kam issiqlik o'tkazish xususiyatiga ega bo'lishi, issiq suv, yuvish vositalari va dezinfeksion eritmalar ta'siriga nisbatan turg'un bo'lishi talab etiladi.

Devorga ilingan doskaning o'lchami 0,75*1,5m, doskaning polga nisbatan quyi chegarasi -0,7-0,8 m ni tashkil etishi kerak.

Bo'r bilan yoziladigan doskalar yuqori adgeziyaga ega bo'lgan (o'zaro ta'sirli) materialdan tayyorlanishi, yozish uchun mo'ljallangan bo'lishi, nam latta bilan oson tozalanishi, tashqi mexanik ta'sirlarga chidamli bo'lishi, yashil rangda bo'lishi, matoli qoplamali, yaltiroqlik keltirib chiqarmasligi kerak.

Markerli doskadan foydalanilganda markerning rangi doska rangidan keskin farq qiladigan holda tanlanishi lozim (qora, qizil, jigar rang, ko'k va yashilning to'q ranglari).

Xususiy yoritkichlarga ega bo'lmagan o'quv doskalari bir tekis yorituvchi sun'iy yoritkichlar bilan ta'minlanishi kerak.

Interaktiv doska va proeksion ekrandan foydalanilganda ularni bir tekis yoritishni ta'minlovchi maxsus yoritkichlar bilan ta'minlash va ortib ketgan yorqinlikda nurli dog'larni bo'lmashligini ta'minlash kerak.

Bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ularni stullarga o'tkazishni tashkil etishda ularning bo'yi, salomatlik holati, ko'rish va eshitish qobiliyati inobatga olinishi kerak. Tez-tez shamollash kasalliklaridan aziyat chekuvchi bolalarni eshik va derazadan uzoqroqda, eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalar va uzoqni yaxshi ko'rolmaydigan bolalar esa birinchi qatorda joylashgan stollarga o'tkazilishi va bunda albatta ularning bo'yi hisobga olinishi kerak.

6.6 MTMLlarda bolalar buyumlari assortimentining gigienik talablariga javob beruvchi va bolalar salomatligiga havfsiz bo'lgan o'yinchoqlardan foydalaniladi, ularning 2%li sovun-sodali eritma bilan yuvish talab etiladi (yasli guruhida kuniga 2 marta, bog'cha guruhida esa kuniga bir marta). Yumshoq o'yinchoqlar har oyda bir marta yuviladi yoki kvarslanadi.

6.7 televizion ko'rsatuvlar va videofilmlarni tomosha qilishda ekran dioganalining kattaligi 42 dyumdan kichik bo'lmagan televizorlardan foydalanish talab etiladi. Televizorlarning joylashtirish balandligi poldan 1-1,3 metrni tashkil etishi kerak. Teleko'rsatuvlarning tomosha qilishda bolalarni ekrandan 2-3 metr yaqin bo'lmagan va 5-5,5 metr uzoq bo'lmagan xolatda

joylashtirish talab etiladi. Stullar 4-5 qator qilib joylashtiriladi (bitta guruh hisobidan); stullar qatorlari orasidagi masofa 0,5-0,6 metrni tashkil etishi kerak.

6.8 Guruh uchun ajratilgan xonalarda akvariumlarda baliq boqishga ruxsat etiladi.

6.9 Yangi qurilayotgan va qayta qurilayotgan MTMLarda guruhlar uchun alohida uxlash xonalari ko'zda tutilishi mumkin.

Uxlash xonalari yog'ochdan, faner yoki MDFdan tayyorlangan krovatlar bilan jihozlanishi mumkin. (8 Ilova).

Krovatlar orasi minimal masofaga rioya qilingan holda joylashtiriladi: krovatlarning uzun tomoni orasi-0,65m, tashqi devorga nisbatan masofasi-0,6m, isitish moslamalari bilan orasidagi masofa-0,2m, boshqa krovatlarning bosh tomoni bilan o'zaro masofasi-0,3m.

6.10 Faoliyat olib borayotgan MTMLarda loyiha bo'yicha uxlash xonalari ko'zda tutilmagan bo'lsa, maktabgacha guruh bolalari uchun kunduzgi uyquni tashkil etishda qattiq o'rindiqli ochiluvchi krovatlardan yoki bir-uch qavatli transformerli o'rindiqlardan (suriluvchi, dumalatib chiqariluvchi) foydalanishga ruxsat etiladi.

Suriluvchi va dumalatib chiqariluvchi krovatlardan foydalanganda har bir guruhda ularni saqlash uchun maxsus joy ko'zda tutilishi, shuningdek, o'rin buyumlari va oqliklarini individual saqlash uchun maxsus o'rinlarni tashkil etish lozim.

6.11 Faoliyat olib boruvchi MTMLarda loyiha bo'yicha uxlash xonalari ko'zda tutilgan bo'lsa, transformerli krovatlarni joylashtirishga ruxsat etiladi, bundan maqsad guruh xonalaridan qo'shimcha ta'lim va boshqa maqsadlar uchun foydalanishga joy ajratishdir.

6.12 Bolalarning har biri alohida o'rin buyumlari, sochiqlar, shaxsiy gigiena buyumlari bilan ta'minlanishi kerak. Agar bolalar MTMda 9, 10,5, 12 soat bo'ladigan bo'lsa, ularda o'rin oqliklari va sochiqlarni kamida 2 tadan kam bo'lmagan komplekti va sutka davomida uzluksiz bo'luvchi MTM bolalarida esa o'rin oqliklari va sochiqlarning kamida 3 ta komplekti bo'lishi kerak, ularni almashtirish kirlanish darajasiga qarab belgilanishi ammo hafta davomida kamida 1 martadan kam bo'lmasligi kerak.

6.13 Sanitar tarmoq yuvinish va tualet zonalariga bo'linadi. Yuvinish mintaqasida bolalar yuvinish chig'anoqlari va dush poddonlari joylashtiriladi.

Dush poddonining o'rnatilish balandligi poldan 0,3 balandlikda o'rnatilishi kerak. Dush poddoni poldan 1,6 metr balandlikda joylashgan dush nasadkali egiluvchi shlang bilan jihozlanishi kerak.

6.14 Yasli guruhidagi tualetning yuvinish mintaqasiga bolalar uchun 2 ta yuvinish chig'anog'i va kattalar uchun 1 ta yuvinish chig'anog'i o'rnatiladi, shuningdek bu yerda aralashtirgich bilan issiq va sovuq suvli dush poddoni ham tashkil etiladi. Sanitar tarmoq mintaqasida 2 ta bolalar unitazi o'rnatiladi unda tuvaklarni yuvish uchun harakatli suv oqimi tashkil etilishi kerak.

Maktabgacha guruhlarining tualetidagi yuvinish zonasida bolalar uchun 3 ta yuvinish chig'anog'i tashkil etiladi, unga aralashtirgichli issiq va sovuq suv oqimini kelishi lozim, kattalar uchun 1 ta yuvinish chig'anog'i tashkil etilishi,

issiq va sovuq suv aralash tirgichli dush paddoni ham tashkil etilishi lozim. Bolalar unitazi 8 nafar bola uchun 1 ta tashkil etilib, unitazlar orasi balandligi 1,2 metrli (polga nisbatan) to'siqlar bilan to'silishi, bu to'siqlarning poldan balandligi 0,15m dan oshmasligi kerak. Oilaviy tipdagi va individual turar joy binolarida tashkil etilgan MTMLarda yuqoridagi talablar tavsiya ko'inishida belgilanadi.

Imkoniyati chegaralangan bolalar uchun tashkil etilgan MTMLarning birinchi qavatida ular uchun maxsus tashkil etilgan sanitar tarmoq kabinalari tashkil etiladi.

6.15 Agarda bolalar MTMda sutka davomida uzluksiz ravishda bo'lsalar, u xolda u yerda bolalarni cho'milishi uchun dush kabinalari bilan jihozlangan vanna xonalarini tashkil etish tavsiya etiladi (vannalar, issiq va sovuq suvli aralash tirgichi bo'lgan poddonlar).

6.16 Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'rnatilgan qo'l yuvish chig'anoqlarining qirrasini poldan balandligi 0,4 m ni tashkil etadi, o'rta va yuqori maktabgacha yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan chig'anoqlarning qirrasini esa poldan 0,5 metr yuqorida joylashtiriladi.

6.17 Bolalar uchun mo'ljallangan unitazlar o'rindiqlar bilan jihozlanishi yoki gigienik to'shamalar bilan ta'minlanishi kerak, ushbu to'shamalar bolalar salomatligi uchun zararsiz bo'lgan materialdan tayyorlangan yuvuvchi va dezinfeksiya qiluvchi vositalar ta'siriga chidamli bo'lishi talab etiladi.

6.18 Faoliyat olib boruvchi MTMLarning sanitar tarmog'i tarkibidagi bolalar tualet xonasida xodimlar uchun alohida yopiluvchi tualet kabinasini tashkil etishga ruxsat etiladi.

6.19 Tualet xonalarida bolalar sochiqlarini ilishi uchun devorga mahkamlangan ilgaklar va shaxsiy gigiena buyumlarini saqlashi uchun alohida yacheykalarga bo'lingan xo'jalik shkaflari va tozalash inventarlari saqlanadigan shkaflar tashkil etilishi lozim.

VII. XONALARNING TABIIY VA SUN'IY YORITILGANLIGIGA QO'YILADIGAN GIGIENIK TALABLAR

7.1 MTMning asosiy xonalari tabiiy yoritilganlikka ega bo'lishi kerak. MTMdagi omborcha, yordamchi xonalar, bufet, yechinish xonalari, xodimlar uchun tashkil etilgan tualet, vanna xonasi, dush xonalari, kolyaskalarni joylashtirish uchun xonalar tabiiy yoritilishsiz xolda ham tashkil etilishi mumkin.

7.2 MTMdagi tabiiy, sun'iy va aralash yoritilganlik darajasi O'zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan qonun osti aktlariga mos holda turar joy va jamoat binolari uchun belgilangan me'yorlar darajasida etib belgilanadi.

7.3 MTMLardagi guruh xonalari, o'yin xonalari va uxlash xonalaridagi yorug'lik kiruvchi derazalar boshqariluvchi quyoshdan himoya qiluvchi qurilmalar bilan jihozlanishi kerak. Bunda quyoshdan himoya qiluvchi qurilma sifatida vertikal yo'naltirilgan, ichki, tashqi va oynalararo joylashtiriladigan jalyuzilardan foydalaniladi.

Ichki jalyuzi sifatida qo'llaniluvchi material suvga, yuvuvchi va dezinfeksiya qiluvchi vositalar ta'siriga chidamli bo'lishi kerak. Quyoshdan himoya qiluvchi vosita sifatida ochiq rangdagi matoli pardalardan ham

foydalanilishi mumkin, mazkur pardalar devor rangi bilan mos bo'lishi lozim, bu pardalar deraza romlarini ko'pi bilan 50% gacha yopishi mumkin.

O'zidan yetarli darajada yorig'lik o'tkazuvchi va yorig'likni yaxshi tarqatish xususiyatiga ega bo'lgan paxta tolasidan qilingan matolardan ham parda qilishga ruxsat etiladi (plplin, shtapel, reps-pishiq ipdan tayyorlangan mato).

Quyoshdan himoya qiluvchi qurilmaning boshqarish moslamalari dastlabki xolatda deraza oynasini faol yorig'lik kirish m aydonini kamaytirmasligi lozim. Bolalar uxlash xonasidagi deraza pardalarini faqat bolalar uxlayotgan vaqtda to'liq yopishga ruxsat etiladi, qolgan vaqtda esa xonani insolyatsiya bilan to'liq ta'minlash maqsadida pardalar to'liq ochiq xolda turishi talab etiladi.

7.4 Bir tomonlama yoritilganlik xolatida guruh xonalarining chuqurligi 6 metrdan oshmasligi kerak. Xona chuqurligi 6 metrdan oshiq bo'lgan xolatlarda deraza oynalarini ikki tomonlama paralel yoki burchak osti xolatida joylashtirish talab etiladi, bu yelvizak shamollatishni ta'minlaydi.

7.5 Guruh xonalarining deraza tokchalariga tabiiy yoritilganlik darajasini kamaytiruvchi yirik bargli xonaki gullarni joylashtirish taqiqlanadi.

7.6 Tabiiy yoritilganlik darajasi yetarli bo'lmagan sharoitda mashg'ulotlar olib borilganda guruh xonalari qo'shimcha sun'iy yoritilganlik darajasi bilan ta'minlanishi kerak.

MTMning asosiy xonalarida iloji boricha spektr bo'yicha yorig'lik tarqatuvchi lyuminessent yoritkichlardan foydalanish zarur, ularga: oq, issiq-oq va tabiiy oq lampalar kiradi. O'z tarkibida himoya qoplamasi saqlagan svetodiod lampalar, LED- lampalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Uzoq, tog'li va cho'l zonalaridagi, shuningdek, elektroenergiya ta'minotida uzilishlar bo'ladigan tumanlarda elektroenergiyasining zahira manbalarini ko'zda tutish zarur (generatorlar yoki elektrotarmog'ining zahira liniyasi) va energiyaning alternativ manbalarini qo'llash (quyosh batareyalari yoki shamol varraklari) maqsadga muvofiqdir.

7.8 Barcha sun'iy yoritish manbalari texnik jihatdan soz holatda bo'lishi kerak.

7.9 Deraza oynalari, yoritish armaturalari va yoritkichlarni tozalash ularni ifloslanish darajasiga qarab belgilanadi, ammo yiliga 2 martadan kam bo'lmasligi kerak.

7.10 Yoritish moslamalari o'z tarkibida chang va nam o'tkazmaydigan himoya armaturasiga ega bo'lishi kerak.

VIII. ISITISH VA VENTILYATSIYA TIZIMIGA QO‘YILADIGAN GIGIENIK TALABLAR

8.1 MTM binolari uchun tashkil etiladigan isitish tizimi va havo almashtirish tizimiga qo‘yiladigan gigienik talablar jamoat binolari va qurilmalariga mos xolda markazlashtirilgan isitish va ventilyatsiya tizimlar tashkil etilishi kerak.

8.2 MTM binolarini issiqlik ta‘minoti issiqlik IES tarmoqlarida ko‘zda tutilgan rayon va lokal qozonxonalar orqali, zahira kirish imkoniyatini bilan tashkil etiladi. Avtonom issiqlik ta‘minotini qo‘llashga ruxsat etiladi.

8.3 Issitish qurilmalarida harorat rejimini optimal ko‘rsatkichlarini ta‘minlash uchun mazkur qurilmalar boshqariluvchi kranlar bilan ta‘minlanishi kerak.

MTM bino xonalarini isitish uchun qo‘lbola isitish moslamalari, shuningdek infraqizil nurlanishli isitish vositalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Boshqa isitish vositalari mavjud bo‘lmagan xolatlarda foydalanish sertifikatiga ega bo‘lgan ko‘chiriluvchi yog‘li isitish qurilmalaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

Faoliyat olib boruvchi MTM binosini mahalliy pechka bilan isitish amalga oshiriladigan bo‘lsa, pechkani yoqish koridorda yoki umuman tashqarida, bolalardan uzoqda amalga oshirilishi, pechkani yoqish tongda boshlanishi, bolalarni MTMga kelishidan 1 soat oldin tugatilishi kerak. Sutka davomida uzluksiz ravishda ishlovchi MTMlarda pechkalarni yoqishni bolalar uyquga ketishidan 2 soat oldin tugatilishi kerak.

Isitish mavsumi boshlanishidan oldin barcha isitish qurilmalarida taftish ishlari o‘tkazilishi va tegishli tashkilotlar tomonidan ushbu qurilmalarni ishga yaroqliligi to‘g‘risida maxsus xulosaga ega bo‘lishi kerak.

Pechkalar yordamida isitiluvchi xonalar havosini uglerod oksidi bilan ifloslanganishini oldini olish maqsadida yoqilg‘i vositalarini to‘liq yonishidan oldin pechka eshiklarini yopib qo‘yish zarur. «Burjuyka» tipidagi mahalliy isitish pechkalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Qattiq yoqilg‘ilarni saqlash uchun alohida xona tashkil etish talab etiladi.

8.4 Isituvchi qurilmalar yuzasining o‘rtacha hrorati 70 gradusdan oshmasligi kerak.

8.5 MTM bolalar bo‘ladigan xonalaridagi havo harorati 20 dan 25⁰ S oralig‘ida saqlanishi kerak.

8.6 Bolalar doimiy bo‘ladigan xonalardagi havoning nisbiy nimligi 40-60%ni tashkil etishi kerak, ovqat tayyorlash bo‘limi va kir yuvish xonalarining ishlab chiqarish bo‘limlaridam esa -70%dan ortib ketmasligi kerak.

8.7 Yil mavsumidan qat‘iy nazar MTMning barcha xonalari bolalar bo‘lmagan vaqtda kuniga kamida 2 marta shamollatilishi kerak. MTMning guruh xonalari va uxlash xonalarida yelvizak yoki burchak osti shamollatilishi ta‘minlanishi kerak. Tualet xonalari orqali shamollatishni tashkil etish taqiqlanadi.

Yilning issiq davrida bolalar ishtirokida ham barcha xonalarda bir tomonlama keng aeratsiyani tashkil etishga ruxsat etiladi.

8.8 MTMLarda xonalarni shamollatish davomiyligi tashqi havo haroratiga, shamol yo‘nalishiga, isitish tizimining samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Xonalarni shamollatish bolalar xonada bo‘lmagan vaqtda amalga oshiriladi va bolalarni mashg‘ulot yoki sayrdan qaytishidan 30 daqiqa oldin tugatiladi.

Shamollatish vaqtida xona havosi haroratini pasayishiga ruxsat etiladi, ammo bu pasayish 2-4⁰S dan oshmasligi kerak. Uxlash xonasidagi yelvizak shamollatish bolalar uxlashga yotqizilishidan oldin amalga oshiriladi.

Yilning sovuq davrida xonadagi framuga va fortochkalar bolalar uyquga ketishidan 10 daqiqa oldin yopiladi.

8.9 Bolalar muntazam bo‘ladigan xonalar (guruh xonalari, o‘yin xonalari, uxlash xonasi, musiqa va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari xonalari va boshqalar) havosidagi zararli moddalar konsentratsiyasi yopiq xonalar havosi uchun o‘rnatilgan ruxsat etilgan miqdordan (REM) oshmasligi kerak.

8.10 MTMdagi bolalar bo‘luvchi barcha asosiy xonalar havo harorati ustidan nazorat maishiy spirtli termometr yordamida o‘lchanib, aniqlanadi, bunda termometr bolalar nafas bo‘sag‘asida, xonaning ichki devoriga mustahkamlangan xolda joylashtiriladi.

IX. SUV TA‘MINOTI VA KANALIZATSIYA TIZIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

9.1 MTM binosi markazlashtirilgan suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimi bilan ta‘minlanishi kerak.

9.2 MTM muassasalari 1bolaga 150 litr hisobidan O‘z DSt 950:2011 “ Ichimlik suvi. Gigienik talablar va sifatini nazorat qilish»talablariga to‘liq javob beradigan ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi kerak.

9.3 Markazlashtirilgan suv ta‘minoti manbasi bo‘lmagan xolatlarda suv ta‘minoti manbasi sifatida burg‘uli quduqlar, buloqlar, shaxtali quduqlar xizmat qilishi mumkin. Keltirilgan manbalar suvining sifati gigienik talablarga mos kelmagan xolatlarda mazkur suv manbasidagi suvdan faqat texnik maqsadlarda foydalanish mumkin. Bunday vaziyatlarda ichimlik suvini keltirishni tashkil etish lozim. Olib kelingan ichimlik suvini saqlash uchun bir bolaga 75 litr hisobidan suv saqlash uchun mo‘ljallangan plastmassa idishlardan foydalaniladi. (9 Ilova). Ichimlik suvini betondan tayyorlangan rezervuarlarda saqlashga ruxsat etilmaydi.

9.4 Kanalizatsiya tizimi mavjud bo‘lmagan, yetib borish qiyin bo‘lgan hududlardagi va uzoq mintaqalardagi MTMLarda chiqin suv va suyuq chiqindilarni maxsus o‘ralarga tashlovchi mahalliy ichki kanalizatsiya tizimi tashkil etiladi, hovlida tashkil etilgan tualet binosi MTM binosidan kamida 10-15 metr masofada joylashtirilishi kerak.

9.5 Issiq va sovuq suv bilan ovqat tayyorlash bloki, bufet, bolalar va xodimlar uchun sanitar tarmoq, kirxona, basseyn va tibbiy maqsadlar uchun xonalar ta‘minlanishi kerak. Xo‘jalik maqsadlari uchun foydalaniladigan qo‘l yuvish chig‘anoqlari, yuvinish vannalari, dush qurilmalari va suv ajratuvchi kranlari aralashtirgichlar bilan ta‘minlanishi kerak.

Ovqat tayyorlash bloki, bufet va tibbiy maqsadlar uchun foydalaniladigan xonalar sanitar tarmog‘ida issiq suvning zahira manbasi o‘rnatiladi, u 1 bolaga 50

litr hisobidan to'g'ri kelishi, mahalliy qo'llanuvchi qattiq ajratkich bilan ta'minlanishi kerak. Mazkur qurilma qozonxonadagi profilaktik ishlar davrida markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti bo'lmagan xollarda va markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti muhandislik qurilmalarida foydalaniladi.

9.6 Markazlashtirilgan suv ta'minoti bo'lmagan xollarda (issiq va sovuq) barcha guruhlardagi ovqat tayyorlash bloki, tibbiy xizmat xonalari, kirxona va sanitar tarmoq uchun mahalliy ichimlik suv ta'minotini tashkil etish zarur.

X. JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR GURUHLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

10.1 Imkoniyati chegaralangan bolalar uchun va nogiron bolalar uchun har qanday tipdagi MTMLarda inklyuziv ta'limli guruhlar tashkil etiladi, ularda korreksion ishlarni tashkil etish uchun barcha zaruriy sharoitlar ta'minlanadi, ularga kiradi:

- sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan-sil kasalligiga chalingan bolalar bilan muloqatda bo'lgan bolalar uchun, sil kasalligi bilan og'rikan bolalar uchun, sil infeksiyasining latent davridagi bolalar uchun va davolashning tiklanish bosqichidagi bolalar uchun, shuningdek, boshqa toifadagi maxsus sog'lomlashtirish chora tadbirlari kompleksi zarur bo'lgan bolalar uchun.

10.2 MTM binosi imkoniyati chegaralangan bolalarni qabul qilish uchun mos bo'lgan zaruriy infrastruktura bilan ta'minlanishi kerak.

10.3 Binoning qavatlilikligi maxsus MTM tarbiyalanuvchilari kontingentini hisobga olgan xolda tashkil etilishi (jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar, harakatlanishdagi chegaralanishlar, harakat koordinatsiyasini buzilishi, ko'rishni yomonlashishi yoki umuman ko'rmaslik va boshqalar) va o'zaro bog'liqlikni qulay, oddiy va qisqa bo'lish imkoniyatini ta'minlash nafaqat bino ichida, balki hudud bilan ham amalga oshirilishi kerak.

10.4 Ixtisoslashtirilgan MTM hududi qulay kelish, ketish yo'llariga ega bo'lishi va jamoat transporti bekatlari bilan oson va qulay bog'langan bo'lishi kerak.

Binoga keluvchi barcha yo'laklar va yo'laklar MTM hududi doirasida qattiq qoplama ega bo'lishi kerak.

Tashkillashtirishning yagona kompleksi (bolalar bog'chasi-maktab) ni bitta hududda joylashtirish tavsiya etiladi.

10.5 Tayanch-harakat apparatida buzilishi bor bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan MTMLar hududida ko'cha va tratuarlar qiyaligi 5 gradusdan oshmasligi kerak, ko'chalar kengligi esa 1,6 metrdan kam bo'lmasligi va u yerda qiyaligi 1:10 nisbatdagi panduslar tashkil etilishi lozim. Bunda bolalarni dam olishi uchun o'rindiqlarni tashkil etish ham ko'zda tutilishi lozim.

Ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan MTMLarda bolalar harakatlanishida havfsizlikni ta'minlash maqsadida sayr qilish yo'laklarining kengligi 3 metrdan kichik bo'lmasligi va yo'lkaning ikki chetida ikkita darajali to'siqlar bilan ta'minlanishi lozim: yerdan 90 sm balandlikda perila va yerdan 15 sm balandlikda – planka.

Bunda to'siqlar bolalar harakatlanishiga to'sqinlik qiluvchi barcha turdagi predmetlar: daraxtlar, butalar, simyog'achlar uchun tashkil etiladi.

10.6 Oqshom vaqtida MTM hududi yoritish darajasi 40 lk bo'lgan sun'iy yoritish moslamalari bilan ta'minlanishi kerak.

10.7 Eshitish organida, ko'rish organida va ongida yetishmovchiliklar bo'lgan bolalar uchun, shuningdek, tayanch harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan MTM larda guruh yacheykalarining tarkibi va maydon o'lchami O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan SanQ va M da taqdim etilgan.

MTMlarda tashkil etilgan zinapoyalar cheti maxsus tutqichlar va balandligi 1,8 m bo'lgan to'siqlar bilan yoki zinapoya butun kengligi va balandligi bo'yicha metall to'r bilan o'ralgan bo'lishi kerak.

10.8 Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan MTMlardagi zinapoyalar ikki tomondan tutqichlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim, bu tutqichlar ikki xil darajada, ya'ni –erdan 0,9 metr yuqorida va qo'shimcha pastki tutqichlar poldan- 0,5m yuqorida tashkil etilishi kerak.

MTMlarda qiyaligi 1:10 bo'lgan panduslar va yirik donador toshli qoplamalar bilan ta'minlanishi kerak.

10.9 Guruh yacheykalarining asosiy xonalarini devori ochiq rangdagi matoviy bo'yoqlar bilan bo'yalgan bo'lishi kerak. Ko'rish organida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan MTMlardagi eshiklarning rangi, eshiklar nalichniklari, binoni oldinga chiqib turgan qismlari, zinapoyalar chegarasi, jihozlar rangi va qurilmalar rangi devorlar rangidan keskin farq qiluvchi ranglar bilan bo'yalgan bo'lishi kerak.

10.10 Agarda MTM mashg'ulot xonalarida tovush kuchaytirgich apparatlardan foydalaniladigan bo'lsa, devor va to'siqlar tovush yutuvchi qoplamalar bilan ta'minlanishi lozim (to'siq va devorlar yuqori tovush yutish xususiyatiga ega bo'lishi kerak).

10.11 Ko'zi ojiz, ko'rish qobiliyati past, eshitmaydigan va yomon eshitadigan bolalar uchun mo'ljallangan uxlash xonalari va musiqa zallari, guruh yacheykalari dunyo tomonlariga nisbatan joylashtirilganda faqat janubiy va sharqiy orientatsiyada joylashtirilishi kerak.

Ko'rish va eshitish qobiliyatida buzilishlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulot o'tish va o'qitish xonalaridagi tabiiy yoritilganlik koeffitsienti (TYoK) yon tomondan yoritilgan xolatda 1,5%dan kam bo'lmasligi kerak.

10.12 O'yin va mashg'ulot xonalarida sun'iy yoritilganlik darajasi 600-800 lk dan kam bo'lmasligi kerak; yorug'likdan qo'rqishdan aziyat chekuvchi bolalar uchun sun'iy yoritilganlik – 500 lk dan yuqori bo'lmasligi kerak, yordamchi xonalarda esa bu ko'rsatkich-300 dan 400 lk gachani tashkil etishi kerak.

10.13 Ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruh xonalari tabiiy va sun'iy yoritilganlikning kombinatsiyalashgan tizimi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Ko'zi ojiz va yomon ko'ruvchi bolalar uchun tashkil etilgan har bir ish o'rni mahalliy yoritish chiroqlari bilan jihozlanishi kerak.

Mazkur mahalliy yoritish chiroqlari stolga mahkam qotirilgan va egiluvchi kronshteynga ega bo'lishi, egilish burchagini va eritish balandligini o'zgartirish lozim.

Yorug'likdan qo'rquvchi bolalar uchun qulay yorug'lik sharoitini yaratish maqsadida ularning dars stollarini tepa qismida umumiy yoritish chiroqlari uchun alohida yoqish moslamalari ko'zda tutilishi kerak.

Logoped xonalaridagi ko'zgu oldida kronshteynlarda egilish burchagini va yorug'lik manbasi balandligini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan devorga mahkamlangan mahalliy yoritish chiroqlari o'rnatiladi.

10.14 Bolalar mebeli va xonalar jihozlari bolalar salomatligi uchun zararsiz bo'lgan materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak, bu materiallarning barchasi gigienik sertifikatga ega bo'lishi kerak, xonalarda jihozlarni joylashtirishda pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini va davolash profilaktik chora tadbirlarni hisobga olish, shuningdek, bolalar yoshi va bo'yiga mos bo'lishini inobatga olish kerak.

Ko'rish qobiliyati past bo'lgan va aqliy jihatdan qoloq bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan guruh xonalarida boshqariluvchi parametrlil, oddiy va ishonchli konstruksiyadan iborat bo'lgan bir o'rinli universal stollarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Eshitish qobiliyati past bo'lgan (garang, yomon eshituvchi bolalar) va nutqiga buzilishlar bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan guruh xonalarida quyidagilarni tashkil etish tavsiya etiladi: individual pultli bir o'rinli stollar (mikrofon komplekti, eshitish moslamalari): tarbiyachi uchun boshqaruv pultli stol (ovoz kuchaytirgich va kommutator bilan), har bir stol uchun boshqaruv pultli kuchsiz tarmoqli podvodka bilan. Eshitish qurilmalari bolalar va tarbiyachilar uchun statsionar mahkamlangan stollarga mustahkamlanadi.

Tayanch harakat apparatida buzilishlar bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan guruh xonalarida mashg'ulotlar olib borish qulay bo'lgan maxsus mebelni tashkil etish ko'zda tutiladi.

10.15 Tibbiy xizmatlar uchun tashkil etilgan xonalar sog'lomlashtirish-profilaktik chora tadbirlarni va korreksion tiklanish ishlarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi va o'z tarkibida kengaytirilgan xonalar majmuasiga ega bo'lishi kerak (muassasa ixtisosligiga mos xolda), bu xonalar asosiy nuqsonga mos bo'lgan kasalikka bog'liq bo'ladi.

10.16 Tayanch harakat tizimida buzilishlar bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan MTM larida tashkil etilgan cho'milish basseynlari bolalarni suvga tushirishga va suvdan chiqarishga ixtisoslashtirilgan moslamalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

XI. QISQA VAQT BO'LUVCHI GURUHLAR UCHUN QO'YILADIGAN TALABLAR

11.1 Bolalar qisqa vaqt bo'luvchi guruhlarini qo'shimcha ta'lim muassasalari bazasi tarkibida, ko'p qavatli turar joy binolarining birinchi qavatida va boshqa moslashtirilgan binolar tarkibida tashkil etish mumkin.

Qisqa vaqt tashkil etilgan guruhlar asosan bolalarni nazorat qilish, ularni parvarishlash va (yoki) ta'lim faoliyatini amalga oshirish bilan shug'ullanishi mumkin.

11.2 Guruhlarni to'lishi bolalarning yoshiga va ularning salomatlik xolatiga qarab amalga oshiriladi. Bolalarning yosh va salomatlik ko'rsatkichlari mazkur Sanitar Qoida va Me'yorda keltirilgan me'yorlardan oshmasligi kerak.

11.3 Bolalarni bo'lish muddati 4 soatgacha bo'lgan, kunduzgi uyqu tashkil etilmagan va bir mahal ovqatlanish bilan tashkil etilgan qisqa vaqt bo'lish guruhlarida xonalarning minimal jamlanmasi quyidagi talablarga rioya qilingan xolda tashkil etilishi kerak:

ustki kiyimlar va poyafzalni saqlash uchun joy yaratilgan xoldagi yechinish o'rnini (shkafchalar yoki ilgaklar);

guruhlar uchun universal xona;

bolalar uchun sanitar tarmoq.

11.4 Sayrlarni tashkil etish imkoniyati bo'lganda skverlar, parklar, shuningdek, bino yaqinidagi bolalar o'yin maydonchasi bilan jihozlangan hovlidan foydalanish mumkin. Qumdonlardan foydalanish xolati bo'lganda mazkur Sanitar qoida talablariga rioya qilish kerak.

Guruhlar uchun tashkil etilgan universal xonada bir bolaga $3,3\text{m}^2$ joy ajratilgan xolda tashkil etilishi, oilaviy tipdagi MTMLarda esa -3m^2 joy tashkil etilishi kerak. Ko'p qavatli turar joy binolarining birinchi qavatida tashkil etilgan MTM lardagi guruh yacheykalarida bir bola uchun kamida $2,8\text{m}^2$ joy ajratilgan xolda tashkil etilishi kerak.

11.6 MTMLardagi sanitar tarmoq tizimida issiq va sovuq suvli qo'l yuvish chig'anoqlari quyidagi hisobga mos xolda tashkil etiladi (bolalar yoshiga bog'liq xolda)-kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo'l yuvish chig'anoqlarini polga nisbatan o'rnatilish balandligi $0,4\text{m}$ va o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun polga nisbatan o'rnatilish balandligi $0,5\text{m}$ ni tashkil etishi kerak. 3 tadan kam bo'lmagan bolalar unitazlarini o'rnatish talab etiladi va bu unitazlar o'rtasi o'lchami $0,75 \times 1,2\text{m}$ li to'siq bilan to'silgan bo'lishi kerak. Yuqorida keltirib o'tilgan talablar oilaviy tipdagi MTMLar va individual turar joy binolarida tashkil etilgan MTMLarga tavsiya tariqasida berilishi mumkin.

11.7 Qisqa vaqt bo'luvchi guruhlardagi bolalar uchun tashkil etiladigan tibbiy xizmat va maktabgacha ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan boshqa turdagi xizmatlarni tashkil etish o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

XII. BOLALARNI MTMGA QABUL QILISH, KUN TARTIBI VA O'QUV-TARBIYA JARAYONIGA QO'YILADIGAN GIGIENIK TALABLAR.

12.1 MTMga ilk bor keluvchi bolalarni qabul qilish, ularni salomatligi uchun optimal va havfsiz sharoitlarni yaratish maqsadida hududiy davolash-profilaktik muassasasi tomonidan berilgan salomatlik xolati to'g'risidagi tibbiy xulosa asosida tavsiya etiladi.

12.2 Bolalarni har kungi tonggi qabul qilib olish (filtr)ni tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi, bunda tarbiyachilar ota-onalardan bolani salomatlik xolatini so'rab surishtirishi talab etiladi.

Bemor bolalar va kasallikka shubha qilingan bolalar shu kuni MTM ga qabul qilinmaydi. Kun davomida kasallikka chalingan bolalar esa kun davomida ularni ota-onasi yoki tez tibbiy yordam mashinasi kelguncha bolalardan ajratiladi.

12.3 Bolalar salomatligi uchun havfsiz va optimal sharoitlarni tashkil etish va amalga oshirish maqsadida, kasallikni boshidan o'tkazgan bolani MTMga qabul qilishda hududiy davolash profilaktika muassasasining uchastka shifokori tomonidan berilgan ma'lumotnoma bo'lgandagina amalga oshirishga ruxsat etiladi. Ushbu ma'lumotnomada bolani MTMga qo'yish mumkinligi, unda bola o'tkazgan kasallik tashxisi, kasallik davomiyligi, yuqumli kasallikka chalingan bemorlar bilan muloqatning mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot, shuningdek, individual ovqatlanish va kun tartibi to'g'risidagi tavsiyalar keltirilgan bo'lishi kerak.

12.4 Bolalar uchun tashkil etilgan kun tartibi bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi va ularni barkamol rivojlanishini ta'minlashi kerak. 3-7 yoshli bolalarni maksimal tetik davrining davomiyligi 5,5-6 soatni tashkil etadi, 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun esa –tibbiy tavsiyalar asosida belgilanadi.

12.5 Bolalarni ochiq havoda kunlik sayr qilish davomiyligi 3-4 soatdan kam bo'lmasligi kerak. Sayr qilish kuniga 2 marta tashkil etiladi: kunning birinchi yarmida-tushlikkacha va kunning ikkinchi yarmida-kunduzgi uyqudan keyin yoki bolalarni uyga ketishidan oldin tashkil etiladi.

12.6 Bolalar bilan o'tkaziladigan sayr davrida o'yinlar va jismoniy mashqlarni bajarish zarur. Harakatli o'yinlar sayr oxirida bolalarni MTM binosiga kelishidan oldin o'tkazilishi kerak.

12.7 Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sutkalik uyquning umumiy davomiyligi -12-12,5 choatni tashkil etib, undan 2-2,5 soatni kunduzgi uyqu tashkil etishi kerak. Kunduzgi uyquni ochiq havoda (ayvonda) tashkil etish optimal hisoblanadi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun kunduzgi uyquni tashkil etish davomiyligi kamida 2 soatni tashkil etishi kerak. Bolalarga uyqudan oldin harakatli va emotsional o'yinlarni o'ynashiga ruxsat etilmaydi.

Qiyin uxlovchi va ziyrak uxlaydigan bolalarni uxlashga birinchi bo'lib yotqizish va kechroq uyg'otish tavsiya etiladi. Turli yoshdagi bolalar guruhidagi katta yoshli bolalarni uyqudan kechrov uyg'otish tavsiya etiladi. Bolalarni uyqusi vaqtida xonada albatta tarbiyachi (yoki uning yordamchisi) bo'lishi kerak.

XIII. TA'LIM FAOLIYATIGA TALABLAR

13.1 Bolalar uchun o'quv-o'yin va ta'lim faoliyati (o'yinlar, ta'lim faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish, shaxsiy gigiena) kun tartibida 1,5 soatdan ko'p bo'lmagan vaqtni egallashi va tasdiqlangan reja asosida olib borilishi talab etiladi.

13.2 Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun haftalik ta'lim yuklamasini maksimal yo'l qo'yiladigan hajmi, qo'shimcha ta'lim dasturlarini amalga oshirish kiritilgan xolatlar bilan birga quyidagilarni tashkil etadi: kichik guruhlarda (2,5 yoshli bolalar uchun) - 2 soatu 45 minut; o'rta guruhlar uchun (5 yoshli bolalar uchun) - 4 soat; katta guruhlar uchun (6 yoshli bolalar uchun) - 6 soatu 15 daqiqa; tayyorlov guruhlari uchun (7 yoshli bolalar uchun) - 8 soatu 30 daqiqa.

13.3 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bevosita uzluksiz ta'lim faoliyatini davomiyligi -10 minutdan oshmasligi kerak, 4 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun -15 daqiqadan oshmasligi kerak, hayotining 5 yilida bo'lgan bolalar uchun -20 daqiqadan oshmasligi kerak, hayotining 6 yilida bo'lgan bolalar uchun -25 daqiqadan oshmasligi kerak, hayotining 7 yilida bo'lgan bolalar uchun esa -30 daqiqadan oshmasligi kerak. Kichik va o'rta guuhlarda kunning birinchi yarmida olib boriladigan ta'lim yuklamasining maksimal yo'l qo'yiladigan xajmi 30 va 40 daqiqadan oshmasligi kerak, unga mos xolda katta va tayyorlov guruhlari esa -45 daqiqa va 1,5 soatdan oshmasligi kerak. Uzluksiz ta'lim faoliyati uchun ajratilgan o'rtacha vaqt o'rtasida fizkult daqiqalar tashkil etish zarur. Uzluksiz ta'lim faoliyati orasida kamida 10 daqiqalik tanaffuslar tashkil etilishi kerak.

13.4 Katta maktabgacha yoshdagi bolalari bilan olib boriladigan bevosita ta'lim faoliyati kunning ikkinchi yarmida kunduzgi uyqudan so'ng amalga oshirilishi, ammo haftada 2-3 martadan ko'p bo'lmasligi kerak. Uning davomiyligi kun bo'yi 25-30 daqiqadan oshmagan holda tashkil etilishi kerak. Turg'un xolatda olib boriladigan bevosita ta'lim faoliyati o'rtasida fizkult daqiqalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

13.5 Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo'shimcha ta'lim bo'yicha mashg'ulotlar (studiyalar, to'garaklar) bevosita sayr va kunduzgi uyqu uchun ajratilgan vaqt hisobiga amalga oshiriladi. Ularni quyidagi bolalar uchun tashkil etiladi:

Hayotining 4 yilida bo'lgan bolalar uchun-haftasiga davomiyligi bir martadan kam emas va 15 daqiqadan kam bo'lmagan vaqt davomida olib boriladi;

Hayotining 5 yilida bo'lgan bolalar uchun-haftasiga davomiyligi ikki martadan kam emas va 20 daqiqadan kam bo'lmagan vaqt davomida olib boriladi;

Hayotining 6 yilida bo'lgan bolalar uchun-haftasiga davomiyligi ikki martadan kam emas va 25 daqiqadan kam bo'lmagan vaqt davomida olib boriladi;

Hayotining 7 yilida bo'lgan bolalar uchun-haftasiga davomiyligi uch martadan kam emas va 30 daqiqadan kam bo'lmagan vaqt davomida olib boriladi;

13.6 Bevosita ta'lim faoliyatiga ajratilgan umumiy vaqtning 50%ni jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va estetik sikllar uchun ajratilishi kerak.

13.7 Bolalar uchun tashkil etilgan davolash-sog'lomlashtiruvchi ishlar va korreksion yordam (LFK, uqalash, logoped bilan mashg'ulotlar, psixolog va

boshqalar bilan mashg'ulotlar) individual xolatda belgilanadi va u tibbiy-pedagogik tavsiyalarga mos bo'lishi kerak.

13.8 Yuqori bilishga oid faollik va aqliy zo'riqishni talab etadigan bevosita ta'lim faoliyatini kunning birinchi yarmida va bolalardagi eng yuqori ish qobiliyati kuzatiladigan kunlarda (seshanba, chorshanba kunlari) olib borish talab etiladi. Bolalarda charchashni oldini olish maqsadida bu faoliyatni bolalarni tasviriy-estetik va jismoniy rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim faoliyati bilan birga olib borish tavsiya etiladi.

13.9 Turli yoshlilar uchun tashkil etilgan guruhlarda bevosita ta'lim faoliyatining davomiyligi bolalar yoshiga bog'liq xolda differensiyatsiya qilish talab etiladi. Yosh reglamentlariga rioya qilish maqsadida, ta'lim faoliyatini katta yoshli bolalar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir, so'ngra asta sekin kichik yoshli bolalarni ham qo'shib borish kerak.

13.10 Bolalar uchun mo'ljallangan teledasturlar va filmlarni uzluksiz ko'rish davomiyligi kichik va o'rta yoshli bolalar uchun -20 daqiqani tashkil etsa, kattta va tayyorlov guruh bolalari uchun-30 daqiqani tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun teleko'rsatuvlarni ko'rishga kun davomida ikki martaga ruxsat beriladi (kunning birinchi va ikkinchi yarmida), bunda tomosha qilish bolalarning ko'z darajasida, televizordan 3-4 metr uzoqlikda bo'lishi kerak. Agarda bola ko'zoynak taqadigan bo'lsa, teleko'rsatuvlarni ko'rish davrida ularni albatta taqishi lozim.

Oqshom vaqtida teleko'rsatuvlarni ko'rish guruhlar uchun ajratilgan xonalarda bolalarni ko'rish maydonida joylashtirilgan, sun'iy yoritilganlik sharoitida yuqoridan yoritish yoki mahalliy yoritish manbalari ostida amalga oshiriladi (bra yoki stol chiroqlari yordamida). Ekranida quyosh nurlarini shulalanishini oldini olish maqsadida kunduzgi vaqtda deraza yuzini ochiq rangdagi yengil pardalar bilan to'silishi talab etiladi.

13.11 5-7 yoshdagi bolalar uchun kompyuterlaprni qo'lash bilan tashkil etilgan bevosita ta'lim faoliyati kun davomida faqat bir marta tashkil etiladi va hafta davomida bu mashg'ulotlar 3 martadan oshmasligi, ular eng yuqori ish qobiliyati kuzatiladigan kunlarda, ya'ni seshanba, chorshanba va payshanba kunlari tashkil etilishi kerak. Kompyuter mashg'ulotidan so'ng bolalar bilan ko'z mashqlarini bajarish maqsadga muvofiqdir. Rivojlantirilgan o'yinlar shaklida tashkil etilgan kompyuterlar bilan ishlashning uzluksiz davomiyligi 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 10 daqiqani, 6-7 yoshli bolalar uchun -15 daqiqani tashkil etishi kerak. Surunkali kasalligi bor bo'lgan bolalar, tez-tez kasalikka chalinuvchi bolalar (yiliga 4 martadan ko'p kasal bo'ladigan bolalar) kasallik o'tkazgandan so'ng 2 hafta davomida kompyuter bilaen bog'liq bo'lgan bevosita ta'lim faoliyatining davomiyligi qisqartirilishi lozim: 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun-7 minut, 6 yoshli bolalar uchun-10 minut.

Kompyuter texnikasini qo'llash bilan olib boriladigan bevosita ta'lim faoliyati jarayonini amalga oshirishda bolalarda charchoqni oldini olish uchun ish kunini gigienik jihatdan ratsional tashkil etishni ta'minlash zarur: xona jihozlarini balalar bo'yiga mosligi, yoritilganlikni yetarli darajada bo'lishi. Videomonitor ekrani bolalarning ko'z darajasida yoki sal pastda, 50 sm masofada

joylashtiriladi. Ko'zoynak taqadigan bolalar kompyuter bilan shug'ullanganda ko'zoynakda bo'lishi kerak. Bitta kompyuterdan bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq bolani shug'ullanishi mumkin emas. Kompyuter qo'llash bilan olib boriladigan bevosita ta'lim faoliyati bevosita pedagog yoki tarbiyachi (uslubchi) ishtirokida amalga oshiriladi.

13.12 Katta va tayyorlov guruhidagi bolalarda foydali jamoat ishi o'z o'ziga xizmat qilish shaklida amalga oshiriladi, bunda elementar xo'jalik-maishiy mehnat va ochiq tabiat qo'ynidagi elementar mehnat shakllari qo'llaniladi (ovqatlanish uchun stol ustini jihozlash, mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishga yordamlashish).

XIV. JISMONIY TARBIYANI TASHKIL ETISHGA TALABLAR

14.1 Bolalar uchun tashkil etiladigan jismoniy tarbiya ularni jismoniy rivojlanishi va salomatlik holatini yaxshilashga, o'suvchi organizmni funksional imkoniyatlarini kengaytirishga, harakat ko'nikmalarini va jismoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

14.2 Harakatlanishning ratsional tartibi, jismoniy mashqlar va chiniqtiruvchi choralar bolalarning salomatlik holatini, ularni yosh-jins imkoniyatlarini va yil mavsumini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Quyidagi harakat faoliyati shakllarini qo'llash tavsiya etiladi: tonggi gimnastika, xonada va ochiq havoda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya daqiqalari, harakatli o'yinlar, sport mashqlari, ritmik gimnastika, trenajerlarda mashg'ulotlar, cho'milish va boshqalar.

5-7 yoshli tarbiyalanuvchilarda harakat faolligini xajmi quyidagicha bo'lishi lozim, tashkillashtirilgan shaklda sog'lomlashtiruvchi-tarbiyalovchi faoliyat haftasiga kamida 6 soatdan kam emas, bunda bolalarning ruhiy-fiziologik o'ziga xosligi, yil fasli va MTMning ish tartibi inobatga olinishi lozim.

Bolalarda harakat faolligini amalga oshirish uchun bolalarning bo'yi va yoshiga mos bo'lgan jismoniy tarbiya darslari va sport maydonlarida maxsus inventarlar tashkil etilishi va qo'llanilishi kerak.

14.3 Hayotining 3 yilida bo'lgan bolalar uchun jismoniy rivojlanish bo'yicha bevosita ta'lim faoliyatini tarbiyachilar haftasiga 2-3 marta guruh xonalarida yoki jismoniy tarbiya zallarida amalga oshiriladi.

14.4 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda jismoniy rivojlanish bo'yicha bevosita ta'lim faoliyati haftasiga 3 martadan kam bo'lmagan xolatda tashkil etiladi.

Uning davomiyligi bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi va quyidagilarni tashkil etadi:

Yasli guruhlari uchun-5-7 daqiqa;

Kichik guruhlarda-15 daqiqa;

O'rta guruhlarda-20 daqiqa;

Katta guruhlarda-25 daqiqa;

Tayyorlov guruhida-30 daqiqa.

5-7 yoshli bolalar uchun yil davomida haftada bir marta jismoniy rivojlanish bo'yicha bevosita ta'lim faoliyati ochiq havoda tashkil etilishi kerak.

Bu mashg'ulotlar faqat bolalarda mazkur mashg'ulotni o'tkazish uchun hech qanday qarshiliklar bo'lmaganda va bolalarda sport liboslari bo'lganda, mashg'ulot olib borish uchun mos bo'lgan ob-havo xolatida amalga oshirilishi kerak.

Yilning issiq davrida, qulay meteorologik sharoitlarda, jismoniy rivojlanish bo'yicha bevosita ta'lim faoliyati ochiq havo ostida olib borilishi kerak.

14.5 Bolalarni chiniqtirish quyidagi chora tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi:

- kundalik hayotdagi chiniqish elementlari: sovuq suvda yuvinish, to'g'ri tashkil etilgan sayr, yengil sport libosida xonada va ochiq havo ostida olib borilgan jismoniy mashqlar;

- maxsus chora tadbirlar: havoli va quyosh vannalari.

Bolalarni chiniqtirish uchun qo'llaniladigan asosiy tabiiy omillar (quyosh, havo va suv) uslubiy tavsiyalarga qat'iy rioya qilingan holda, xodimlar va MTM moddiy texnik bazasini, tayyorgarlik darajasini hisobga olib, bolalarning salomatligi, yoshiga differenlanib bog'langan xolda qo'llaniladi.

Bolalarni chiniqtirish mashqlarini tadbirning kuchi va davomiyligi, yil mavsumiga bog'langanligi, guruh xonalaridagi havo harorati, epidemiologik vaziyatni inobatga olgan xolda o'zgartiriladi.

14.6 Bolalar o'rtasida cho'milishni tashkil etishda ularni basseynida bo'lish davomiyligi bolalar yoshiga bog'liq bo'lib, quyidagilarni tashkil etadi: kichik va o'rta guruh bolalari uchun-15-20 daqiqa, katta va tayyorlov guruh bolalari uchun-25 daqiqagacha.

14.7 Bolalar cho'milish basseyniga faqat shifokor-pediatr ruxsati bilangina tushishiga ruxsat etiladi.

14.8 Yilning issiq davrida bolalar bilan olib boriladigan sog'lomlashtiruvchi tadbirlar profilaktik chora tadbirlar tizimining asosiy qismi hisoblanadi.

Yilning issiq davrida bolalar o'rtasida sog'lomlashtirish samaradorligini oshirish maqsadida kun tartibida bolalarni ochiq havoda maksimal bo'lish vaqti ta'minlanishi, ulardagi uyquning davomiyligi va boshqa turdagi dam olishlar bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Bolalarning yetarli darajadagi harakat faolligiga erishishi uchun bolalarni jismoniy rivojlanishi bo'yicha bevosita ta'lim faoldiyatining barcha turdagi tashkillashtirilgan shakllarini qo'llash zarur, bunda haraktli o'yinlarni keng ko'lamda kiritish, musobaqa elementlarini o'z ichiga olgan sport mashqlari, shuningdek, piyoda sayrlar, ekskursiyalar, aniq belgilangan marshrutlar bo'yicha sayrlar (oddiy turizm)larni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

14.9 Bolalarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha ishlar bolalarning salomatlik holatini inobatga olgan holda amalga oshiriladi, bunda ular tibbiy xodimlar tomonidan muntazam kuzatuv ostida bo'lishlari kerak.

XV. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI GIGIENIK O‘QITISH VA TARBIYALASH

15.1 Maktabgacha yoshdagi bolalarni gigienik o‘qitish va tarbiyalash tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak, bunda o‘svuchi organizmning asosiy funksiyasi hisoblangan jismoniy va aqliy rivojlanishini dinamikasi hisobga olinishi zarur.

MTMda gigienik o‘qitish va tarbiyalashning asosiy vazifasi bo‘lib, bolalarni mustaqil bo‘lishi va faolligini o‘sishi fonida ongli madaniy-gigienik ko‘nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

15.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarni gigienik tarbiyalash va o‘qitishning asosiy shakllari bo‘lib, amaliy faoliyat hisoblanadi, unda tarbiya jarayonining organik bo‘limi muhim ahamiyatga egadir, ularga quyidagi bo‘limlar kiradi: jismoniy tarbiya (salomatlikni mustahkamlash, tonggi mashqlarni bajarish ko‘nikmalarini o‘zlashtirmoq, chiniqtirish, faol harakat rejimi), ma‘naviy tarbiya, o‘zini madaniy tutish tarbiyasi, o‘zining va do‘stlarini salomatligiga ongli munosabatda bo‘lish, mehnat va estetik tarbiya (mehnat ko‘nikmalarining o‘zlashtirmoq o‘z o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalari, jismoniy va aqliy mehnat gigienasi bo‘yicha gigienik tavsiyalarni bajarishga talabni shakllantirish).

15.3 MTMdagi pedagogik va tibbiy xodimlar bolani maktabgacha tarbiya muassasasida bo‘lishining barcha yillarida gigienik tarbiya bo‘yicha ishlarni amalga oshirishi kerak, bu ishlar muassasada olib boriladigan barcha bo‘limlar bo‘yicha bajariladigan ishlarda o‘z aksini topishi, tarbiyalashning ma‘lum dasturlari bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

Bolalarni gigienik tarbiyalashga ota-onalar keng ko‘lamda jalb etilishi kerak, ularni MTMda olib boriladigan ishlarni xarakteri va tashkil etilganligi bo‘yicha barcha ishlar bilan tanishtirish va uyda o‘z o‘zini tutish bo‘yicha ko‘nikmalarni mustahkamlash ishlari olib borilishi kerak.

15.4 Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni gigienik o‘qitish va tarbiyalashga oid masalalar muassasaning ish rejasida o‘z aksini topishi va pedagog tarbiyachilarning ish rejasida ham akslantirilishi kerak.

15.5 Bolalarni tizimli ravishda shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishga o‘rgatib borish kerak (tanani, qo‘lni, yuzni va oyoqni yuvish, tishlarni tozalash).

Tishlarni tozalashni turg‘un ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida, sutka davomida uzluksiz tashkil etilgan guruhlarda ushbu amaliyotni har kuni tonggi yuvinish vaqtida, kunduzgi guruhlarda esa – tushlikdan so‘ng amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bolalar 2 yoshdan boshlab tishlarini namlangan tish shetkasi bilan, 3 yoshdan boshlab esa tish kukuni yoki bolalar tish pastasi yordamida tozalashlari maqsadga muvofiqdir.

Individual foydalanish uchun mo‘ljallangan sovun individual sovun idishlarida, tish shetkasi, pastasi (kukuni) esa individual stakanlarda, yuqori polkadagi markirovkalangan yacheykalarda saqlanishi lozim. Bolalarda shaxsiy gigiena amaliyotini amalga oshirish uchun shaxsiy gigiena shaxsiy gigiena predmetlaridan foydalanish qoidalariga muntazam ravishda o‘rgatib borish kerak (tish shetkalari, sochiqlar, taroqlar, mochalkalar).

15.6 Bolalar uchun individual mochalkalar foydalanilgandan so'ng 15 daqiqa davomida 0,5%li xlorli eritmada chayiladi, oqib turgan suvda yuviladi, quritiladi va individual matoli qopchalarda saqlanadi.

XVI. XONALARNI SANITAR XOLATDA SAQLASHGA VA DEZINFEKSION CHORA TADBIRLARGA TALABLAR

16.1 MTMning barcha xonalari kuniga 2 marta ikki marta namli usulda tozalash vositalari yordamida tozalanishi kerak. Xonalarni tozalash deraza yoki ochiq framugalarni ochiq xolda amalga oshiriladi. Bunda eng ko'p ifloslanadigan joylarni (eshik tutqichlari, shkaflar, deraza tokchalari, chiroqni yoqish moslamalari, qattiq mebel jihozlari va h.k.) va chang eng ko'p to'planadigan joylarni (plintus va mebel ostidagi pol yuzasi, radiatorlar, yoritish moslamasining armaturalari, ventilyatsiya panjarasi va boshqalar) ni ayniqsa sinchkovlik bilan tozalash talab etiladi. (10 Ilova).

Bolalar uxlash xonasi yoki uyquni tashkil etish uchun ajratilgan joylarda olib boriladigan namli tozalash tungi yoki kunduzgi uyqudan so'ng, guruhlar uchun ajratilgan xonalardagi yoki umumiy ovqatlanish zalidagi tozalash esa har ovqat iste'molidan so'ng amalga oshirilishi kerak.

Guruh xonalaridagi stollar va ovqatlanish zallaridagi stollar har ovqat iste'molidan oldin va keyin sovunli suv bilan, maxsus shetka yordamida yuvilishi kerak. So'ngra bu shetkani yuvish, quritish va quruq xolda maxsus markirovkalangan qopqoqlr idishda saqlash talab etiladi. Stullar, manejar va boshqa jihozlar, shuningdek, bolalar tagliklari, klenkali so'lakchalar har kuni sovunli suvda yuvilishi kerak.

Texnik maqsadlar uchun foydalaniladigan suvni (guruh xonalarini tozalash, tualetni tozalash va h.k.) faqat maxsus krandan olish maqsadga muvofiqdir. Tozalashda ishlatilgan suvni unitazga quyib yuborish talab etiladi.

16.2 MTMdagi gilamlar har kuni changyutgich bilan tozalanadi va namli shetka bilan artiladi yoki gilamlarni tozalash uchun maxsus ajratilgan joylarda yaxshilab qoqiladi, so'ngra namli shetka yordamida tozalanadi. Yilda bir marta ularni quruq usulda kimyoviy tozalanadi.

16.3 PEVMning va mebelning barcha yuzasi har kuni changdan tozalanadi. Qog'oz, qo'llanmalar, o'quv adabiyotlari va boshqalarni yopiq (oynali) shkaflarda saqlash taklif etiladi.

16.4 MTMdagi sanitar texnik qurilmalarni zararsizlantirish haftada bir marta general tozalash ishlari olib borish vaqtida va epidemiologik ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladi. Bolalar tuvaklari har bir foydalanilgandan so'ng, maxsus sertifikatga ega bo'lgan moslamalar va tozalash vositalari yordamida amalga oshiriladi. Vanna, qo'l yuvish chig'anoqlari, unitazlar kunda ikki marta shetka yoki maxsus moslamalar bilan tozalash vositalarini qo'llagan xolda yuviladi va haftada bir marta dezinfeksiyon vositalar ishtirokida tozalanadi. Bu moslama va tozalash qurilmalari sanitar texnik vositalarni qayta ishlashda ruxsat etilgan va havfsizligi kafolatlangan bo'lishi kerak. kvachlar dezinfeksiyon eritmaning ishchi eritmasi bilan har kuni tozalanishi kerak.

16.5 Tualet xonasini tozalash inventarlari (supurgi, chelak, shetka) yorqin rangli bo'yoq bilan belgilanishi va tualet xonasidagi maxsus tashkil etilgan shkafda yoki boshqa maxsus ajratilgan joyda saqlanishi talab etiladi. Barcha tozalash inventarlari foydalanilgandan so'ng issiq suv bilan tozalash vositalarini qo'llagan xolda yaxshilab yuvilishi va quritilishi talab etiladi. 16.6 Dezinfeksion eritmalar (qora rangli idishlarda) tibbiy xonada saqlanishi kerak. (10 Ilova).

16.7 MTMning barcha xonalaridagi general tozalash ishlari (guruh yacheykalarida, ovqat tayyorlash blokida, tibbiy xonada, kir yuvish xonasida, musiqa-gimnastika zalida), haftada bir marta, dezinfeksion va yuvish vositalarini qo'llagan xolda amalga oshirilishi talab etiladi. Deraza oynalari tashqaridan va ichkaridan ifloslanish darajasiga qarab tozalanadi, ammo bu yiliga kamida 2 martani tashkil etishi kerak. (bahorda va kuzda).

16.8 Epidemiologik vaziyat asoratlari yuzaga kelsa, yuqumli kasallikni oldini olish maqsadida sanitariepidemiologik xizmati xodimlari talabiga mos xolda qo'shimcha chora tadbirlarni amalga oshirish zarur.

16.9 Yilning issiq davrida xonalarni zararli hashoratlarni saqlash maqsadida xona eshik va derazalari teshikchalarining o'lchami 2-2,2mm bo'lgan sun'iy materiallar yoki metall to'rlar bilan to'silishi kerak. Pashshalar bilan kurashish maqsadida xona ichida yopishqoq lentalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

16.10 Havo so'rib oluvchi ventilyatsion tizimdagi jalyuzi panjaralari ochiq xolda turishi kerak; ularni faqat tashqi va ichki havo haroratining keskin farq qilgan xollarida yopishga ruxsat etiladi. Ifloslanish darajasiga qarab ularni changdan tozalash maqsadga muvofiqdir. So'rib oluvchi ventilyatsiya shaxtasini tozalash yiliga kamida 2 marta amalga oshirilishi kerak.

16.11 Guruh yacheykalarida bolalar bor bo'lgan vaqtda hech qanday turdagi ta'mirlash ishlari olib borilmaydi.

16.12 Bolalar o'yinchoqlari (yumshoq o'yinchoqlardan boshqa) guru bolalariga berilishidan oldin 15 daqiqa davomida oqib turgan suvda (37⁰S xaroratdagi suv bilan) sovunlab yuviladi va quritiladi. Yuvish vaqtida rezinkali, penopoliuretanli, penolakteks, plastizoldan tayyorlangan o'yinchoqlarni yaxshilab siqib tashlash zarur.

16.3 O'yinchoqlarni har kuni ikki marta yuvish kerak. Qo'g'irchoqlarning ko'ylaklari ifloslanish darajasiga qarab, sovunli suvda yuviladi va dazmollanadi.

16.14 Penolateksdan tayyorlangan tukli o'yinchoqlar o'yinchoqni tayyorlovchi zavod yo'riqnomasiga ko'ra qayta ishlanadi.

16.15 MTMda o'yinchoqlarni foydalanishga berish va o'yinlarni almashtirish punktlarini va boshqa inventarlarni almashtirishga berish punktlarini tashkil etish taqiqlanadi.

16.16 MTMda sochiqlar, o'rin oqliklarini almashtirish ifloslanish darajasiga qarab amalga oshiriladi, ammo bu haftada kamida bir martani tashkil etishi kerak. Kravotlar, matraslar, yostiqlar va ko'rpalar belgilanishi kerak. Har bir bola uchun kamida ikki komplekt oqlik, sochiq ham qo'shib hisoblanganda bo'lishi kerak. Bolalar uchun toza oqliklar maxsus toza qoplarda olib kelinishi va maxsus shkaflarda saqlanishi keroak.

16.17 Foydalanib bo'lingan oqliklar maxsus qopqoqli idishda saqlanishi, klenkali, plastik yoki ikki qavatli matoli qoplarda saqlanishiga ruxsat beriladi. Kir oqliklar kirxonalarda (yoki maxsus xonalarda) saqlanishi kerak. Kir oqliklar olib kelingan matoli qoplar kirxonaga topshiriladi, kleenkali va plastik idishlar esa issiq sovun-sodali eritma bilan tozalab yuviladi.

16.18 Bolalarning o'rin ko'rpalari: matraslar, yostiqlari, uyqu qoplari har bir general tozalash o'tkazilganda bevosita uxlash xonasining o'zida yoki ochiq havoda shamollatilishi kerak. epidemiologik ko'rsatmalar bo'yicha esa o'rin buyumlari dezinfeksion kamerada qayta ishlanishi talab etiladi.

16.19 Zarurat bo'lganda MTM binosida profilaktik dezinsnesiya va deratizatsiya ishlarini olib borishi kerak.

XVII. TIBBIY XODIMLAR TOMONIDAN OLIB BORILADIGAN ASOSIY CHORA TADBIRLAR

17.1 MTMning tibbiy xodimlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruq va me'yoriy hujjatlar asosida chora tadbirlarni amalga oshiradilar, jumladan:

muassasaga qabul qilishda bemor bolalarni aniqlash, shular qatorida pedikulyozga ham tekshirish uchun tibbiy ko'riklarni tashkil etish;

tarbiyadanuvchilarning salomatlik xolati ustidan ayniqsa salomatlik xolatida stljishlari bo'lganlar ustidan sistemali kuzatuv olib borish;

MTM rahbariyati bilan hamkorlikda tarbiyalanuvchilarning profilaktik ko'riklarini tashkil etish va o'rnatilgan tartibda profilaktik emlashlarni olib borish;

oilaviy tipdagi MTMlar va individual turar joy binolarida tashkil etilgan MTMlardaga bolalar o'rtasida rahbariyat bilan kelishgan xolda profilaktik emlashlarni olib borishna qaratilgan tibbiy ko'riklarni tashkil etish;

jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun bolalarni guruhlarga taqsimlash;

tashkilot rahbariyati, tarbiyachilar, bolalar salomatlik xolati bo'yicha jismoniy tarbiya uslubchisini salomalik xolatida siljishlari bo'lgan bolalar uchun taklif etiladigan kun tartibi to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishtirish;

tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida har kunlik ambulator qabuli (zarurat bo'lganda), bemor bolalarni aniqlash, ularni o'z vaqtida sog'lom bolalardan ajratish, favqulotda xolatlarda ularga birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish;

hududiy Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazlariga va muassasalariga tarbiyalanuvchilar va xodimlar o'rtasida infeksiyon va parazitari kasalliklar, ovqatdan zaharlanish xolatlarigi shubha bo'lganda 2 soat ichida o'rnatilgan tartibda xabar yetkazish;

xonalarni va umumiy foydalanish joylari, xudud sanitar xolati ustidan doimiy kuzatuv olib borish, shuningdek, xodimlar va tarbiyalanuvchilarni shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishi ustidan nazorat olib borish;

MTM rahbariyati bilan hamkorlikda hududiy tibbiy birlashmalar, Davlat sanitariya epidemiologiya markazlari taklifiga mos xolda sanitar gshigienik va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni amalga oshirish;

-jismoniy tarbiyani tashkil etish bo'yicha tibbiy nazorat, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun joy tanlash va ularning xolati ustidan nazorat olib borish, tarbiyalanuvchilarning jinsi, yoshi va salomatlik xolatiga bog'liq xolda jismoniy tarbiya bo'yicha chora tadbirlar o'tkazish bo'yicha kuzatuvlar olib borish.

XVIII. MAZKUR SANITARIYA QOIDALARGA RIOYA QILISHGA TALABLAR

18.1 MTM rahbariyati quyidagilarni ta'minlaydi:

amaldagi sanitar qoida va me'yorlarning mavjudligi, MTM xodimlarini ushbu qoidalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan xabardorligini va ularga qo'yiladigan ma'suliyat bilan tanishtirib borish, MTMning barcha xodimlarini mazkur qoidalar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

Sanitar qoida va me'yorga rioya qilish uchun zaruriy sharomtlarni tashkil etish;

MTMning barcha xodimlari tomonidan Sanitar qoida va me'yor talablarini qat'iy ravishda bajarilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan amalda bo'lgan buyruqqa asosan tashkilotning barcha xodimlari tomonidan o'z vaqtida davriy tibbiy ko'rikdan o'tishni ta'minlash;

Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazi tomonidan berilga topshiriqlarni o'z vaqtiida bajarilishini ta'minlash;

ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitini amaldagi qonunchilikka, Sanitar qoida va gigienik me'yorlarga mos kelishi;

mebelni hisobga olish kartasi bilan tasdiqlangan har bir guruhda maktabgacha jihozlar bilan ta'minlash, shuningdek, ularni bolalarning bo'y-yosh ko'rsatkichlariga mos holda o'z vaqtida almashtirish, gigienik talablarni hisobga olgan holda bolalarni stolga to'g'ri o'tkazish ustidan nazorat olib borish;

muassasaning texnologik, sovitgich va boshqa qurilmalarini to'g'ri ishlashi ustidan nazorat olib borish;

dezinseksiya va deratizatsiya bo'yicha chora tadbirlar tashkil etish va shartnomalar tuzish;

birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun yetarli miqdordagi dori moddalari bilan ta'minlash va Sog'liqni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlariga asosan ularni o'rnini o'z vaqtida to'ldirish;

xodimlar o'rtasida ma'ruza, suhbat, seminar ko'rinishdarida sanitar gigienik o'qitish ishlarini tashkil etish;

Sanitar qonunchilikni buzilish xolatlari yuzaga kelganda MTM rahbariyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'rnatilgan tartib bo'yicha javobgar hisoblanadilar.

1-ilova
Tavsiya etiladigan

Asosiy xonalarning tarkibi va umumiy maydonlari

№	Xonalar nomi	Maydoni, m²
1.	Poyabzal almashtirish uchun qabulxona sig'imi 60–385 o'rinli bo'lganda	12÷66
2.	Sport mashg'ulotlari zali sig'imi 160–385 o'rinli bo'lganda	80÷138
3.	Yo'lak (60–385 o'rinli)	12÷494
4.	Xodimlar uchun sanitariya bog'lami (60–385 o'rinli)	3÷25
5.	Dushxona (60–385 o'rinli)	1÷5
6.	Kiyim almashtirish xonasi (60–385 o'rinli)	30÷150
7.	Guruh xonasi (60–385 o'rinli)	180÷1200
8.	To'garak mashg'ulotlari xonasi sig'imi 385 o'rinli bo'lganda	20
9.	Gimnastika zali sig'imi 235–385 o'rinli bo'lganda	56÷100
10.	Musiqa mashg'ulotlari zali sig'imi 135–385 o'rinli bo'lganda	66÷135
11.	Yuvinish xonasi (60–385 o'rinli)	10÷126
12.	Hojatxona sig'imi 385 o'rinli bo'lganda	38
13.	Tozalash anjomlari uchun omborxona sig'imi 135–385 o'rinli bo'lganda	3÷50

2-ilova
Tavsiya etiladigan

Xona derazalarining yo'nalishi

№	Xonalar	Ma'qul yo'nalish	Ruxsat etilgan azimutlar
1.	Guruh xonasi	J	25° dan 335° gacha
2.	Yotoqxonona	Shm	Har qanday
3.	Musiqa va gimnastika mashg'ulotlari zali, massaj vannasi bo'lgan xona, fizioterapiya kabineti	J	Har qanday
4.	Oshxona, xomaki va pishirish sexlari	Shm	Har qanday
5.	Tibbiyot xonasi	Shq	Har qanday

3-ilova
Tavsiya etiladigan

Tibbiyot bloki

№	Xonalar nomi	Maydoni, m²
1.	Tibbiyot kabineti	12÷16
2.	Dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash joyi bilan birlashtirilgan sanitariya bog'lami (tavsiya etiladi)	6

4-ilova
Tavsiya
etiladigan

Xizmat va maishiy xonalarning tarkibi hamda umumiy maydonlari

№	Xonalarining nomlanishi	Maydoni, m²
1.	Mudir xonasi	13÷17
2.	Metodist xonasi 160÷385 o‘rinli sig‘imda	19÷33
3.	Xo‘jalik omborxonasi: - 100 o‘ringacha sig‘imda - 100 dan 170 o‘ringacha sig‘imda - 170 va undan ortiq o‘rinli sig‘imda	3÷9 10÷16 20÷24
4.	Xodimlar uchun hojatxonalar	5
5.	Xodimlar uchun garderoab: - 100 o‘ringacha sig‘imda - 100 dan 235 o‘ringacha sig‘imda - 235 va undan ortiq o‘rinli sig‘imda	3 10÷13 13÷15
6.	Psixolog xonasi, logoped xonasi (235–385 o‘rinli sig‘imda)	16

Oshxona bloki xonalarining tarkibi va maydonlari

Xomashyoda ishlaydigan oshxona bloki	MTTdagi o‘rinlar soniga qarab xonalar maydoni, m²				
	2 dan 60 gacha o‘rin	60 dan 135 gacha o‘rin	135 dan 160 gacha o‘rin	160 dan 235 gacha o‘rin	235 dan 385 gacha o‘rin
Tarqatish joyi bo‘lgan oshxona	16	25	25	40	50
Tayyorlov sexi	-	-	-	-	-
Go‘sh-t-baliq sexi	-	-	-	10	10
Sabzavot sexi	-	-	-	10	10
Unli mahsulotlar sexi	-	-	5	10	11
Oshxona idishlarini yuvish xonasi	10	10	10	10	10
Quruq oziq-ovqat mahsulotlari omborxonasi	9	10	10	10	12
Xodimlar xonasi	8	8	10	10	12
Ovqatlanish idishlarini yuvish xonasi	10	10	10	10	10
Ovqatlanish zali (1 bola hisobidan)	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7

Kir yuvish xonasining tavsiya etiladigan tarkibi va maydoni

MTTdagi o‘rinlar soniga qarab xonalar maydoni, m²	MTTdagi o‘rinlar soniga qarab xonalar maydoni (m²)				
	2 dan 60 gacha o‘rin o‘rin o‘rin	60 dan 135 gacha	135 dan 160 gacha o‘rin	160 dan 235 gacha o‘rin	235 dan 385 gacha o‘rin
Kir yuvish xonasi:	9	16	18	40	48
kir yuvish	-	-	-	-	17
dazmollash	-	-	-	-	15
iflos kiyimlar xonasi	-	-	-	-	6
sanuzel	-	-	-	-	4
toza kiyimlar xonasi	-	-	-	-	6

7-ilova**Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun stol va stullarning asosiy o'lchamlari**

Bo'yi guruhlari bo'yicha bolalarning yoshi 	Bolalarning bo'yi guruhi, sm	Mebel guruhi	Stol balandligi, sm	Stul o'rindig'i balandligi, sm	Och rangdagi markirovka rangi
1 yil 8 oygacha	80 gacha	A	34	17	oq
1 yoshu 8 oydan 2 yoshu 8 oygacha	80-90	B	38	20	yashil
2-3 yosh	90-100	V	43	24	havorang
4-5 yosh	100-115	G	48	28	zarg'aldoq
5-6 yosh	115-130	D	54	32	sariq
6-7 yosh	130 dan yuqori	J	60	36	qizil

8-ilova**Yasli va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun karavot o'lchamlari (sm da)**

Parametrlari (sm)	3 yoshgacha	3-7 yosh
Yotoq joyi uzunligi	120	140
Yotoq joyi kengligi	60	60
Yotoq joyining poldan balandligi	15-30	15-30

Suv sarfi me'yorlari (litrda)
QMQ 2.04.01-98 "Binolarning ichki suv quvurlari va kanalizatsiyasi",
3-ilova, 9-band

Bitta bolaga to'g'ri keladigan suv iste'moli	Sutkalik eng yuqori suv iste'moli	
	Umumiy	Shu jumladan, issiq suv
9. Bolalar kunduzi bo'ladigan ta'lim muassasalari: yarim tayyor mahsulotlarda ishlaydigan oshxonali	30	16
xomashyoda ishlaydigan oshxonali va avtomat kir yuvish mashinalari bilan jihozlangan kir yuvish xonali	105	35
Bolalar kecha-kunduz bo'ladigan ta'lim muassasalari: xomashyoda ishlaydigan oshxonali va avtomat kir yuvish mashinalari bilan jihozlangan kir yuvish xonali	55	30
xomashyoda ishlaydigan oshxonali va avtomat kir yuvish mashinalari bilan jihozlangan kir yuvish xonali	130	40
Bolalar qisqa muddat (4 soat) bo'ladigan, oshxona va kirxonalarsiz ta'lim muassasalari	5	2,7

MTTda yuvish va zararsizlantirish vositalari sarfi me'yorlari

№	Nomi	O'lchov birligi	Bir bola uchun kunlik	Bir bola uchun oylik	Bir bola uchun yillik
1	Kir sovun	gr	2	42	506
2	Kukun (kir yuvish uchun)	gr	4	84	1012
3	Atir sovun yoki suyuq sovun	gr	2	42	506
4	Kalsinatsiyalangan soda (oshxona idishlari va unitazlarni yuvish uchun)	gr	4	84	1012
5	Kalsiy gipoxlorid (yoki xloramin)	gr	1	22	264
6	Oqartiruvchi vosita	gr	2	42	506
7	Santexnika uskunalarini yuvish uchun vosita	gr	3	66	792
8	Hojatxona qog'ozi	dona	0	0	4
9	Idishlarni yuvish uchun yog'sizlantiruvchi gel	gr	1	21	253
10	Choy sodasi (oshxona idishlarini yuvish uchun)	gr	1	21	253

Tibbiyot xonasining jihozlari va asbob-uskunalarining taxminiy ro'yxati

№	Nomi	Soni (dona)
1.	Yozuv stoli	1
2.	Stullar	2
3.	Kushetka	1
4.	Tibbiy shkaf	1
5.	Shisha qopqoqli tibbiy stolcha:	1
6.	A) emlash asboblari to'plami bilan	1
7.	B) kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatish vositalari bilan	1
8.	Sovitkich (vaksina va dori-darmonlar uchun)	1
9.	Sovitkich uchun termometr	1
10.	Yuvinish chanoq-rakovinasi	1
11.	Pedalli qopqoqqa ega chelak	1
12.	Tibbiy tarozi	1
13.	Bo'y o'lchagich	1
14.	Oftalmologik va otolaringologik tekshiruv uchun stol lampasi	1
15.	Kanselyariya shkafi	1
16.	Bolalar manjetli tonometr	2
17.	Fonendoskop	2
18.	Rezina jgut	1
19.	Ignali bir martalik shpritslar: 2,0 sm kub. va 0,5 sm kub.	5
20.	10 sm kub	5
21.	Pinset	3
22.	Tibbiy termometr	10
23.	Qaychi	1-2
24.	Rezina grelka	1-2
25.	Muz solinadigan xaltacha	2
26.	Buyraksimon lotok	2
27.	Bir martalik shpatel	50
28.	Shinalar (Kramer, Diterixs, qo'l uchun plastmassa shinalar)	1
29.	Kvars lampa (ko'chma)	1